O‘tkazilgan tajribalar natijasidan xulosa qilish mumkinki keltirilgan sharoitlarda ftal kislotasining xlorsirka kislotasi efirlari bilan reaksiyasini olib borish mumkin.

Adabiyotlar

- Буйлова Е.А., Абдрахманова Л.К. Нафикова Р.Ф., Клявлин М.С., Мазитова А.К. Сложноэфирные пластификаторы поливинилхлорида. Электронный научный журнал «Нефтегазовое дело», 2013, № 1 С 334-343
- Slugoeki Eugeniusz, Masal Czeslaw, Sropa Zbigniew/ Pat. ПИР, кл. С.07. С 69/80, № 101623, заявл. 7.02.76, № 187097, опубл. 15005.79. Способ Получения бесцветных сложных эфиров. 1980г. 17н97.
- Гасанов Г.М, Гусейнов И.И, Бабаев .С.Б Синтез ангиридов тетрагаллоидфталевых кислот и мономеров на их основе., Р.Ж.Хим, ЗЖ 216.1988г.
- Холиков Т.С., Ёдгоров Ч.Г., Таджимухамедов Х.С., Усаров Ю.Ю. Синтез бутилового и карбетоксиметилового эфиров антракиновой кислоты. Вестник НУУз. 2015 3 С
- Яхина Г. Р., Хакимова Т. В., Вафина Г. Ф., Галин Ф. З., Юнусов М. С. Синтез 6-карбоксилатов 3-азабицикло[3.3.1]нонан-9-она. Мат. конф. Интеграция науки и высшего образования в области био- и органической химии и механики многофазных систем, 2002, стр.22 РЖ Хим.03.19-19Ж.220
- Титце Л., Айхер Т. Препаративная органическая химия.// М.: 1999 г. С.-576

УДК 547.785.5:547.582.1

6-BROMBENZOKSAZOLIN-2-ONNI AROMATIK KISLOTA XLORANGIDIDLARI

BILAN KATALITIK ATSILLASH

Y.R.Taxirov, R.Sh.Kuryazov, S.B.Sodikova

Urganch davlat universiteti

E-mail: yuldash_78@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada 6-brombenzoksazolin-2-onni aromatik kislota xlorangididlari bilan kam miqdor katalizator $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ ishtirokida atsillash reaksiyalari natijalari keltirilgan. 6-Brombenzoksazolin-2-onni benzoillashda katalizatorlar Lyuis kislotalarini nisbiy faollik qatori topilgan.

Kalit so‘zlar: Benzoksazolin-2-on, 6-brombenzoksazolin-2-on, katalizatorlar, Lyis kislotalari, atsillash, aromatik kislota xlorangidridlari, 3-aroil-6-brombenzoksazolin-2-on.

Каталитическое ацилирование 6-бромбензоксазолин-2-она хлорангидридами ароматических кислот

Аннотация. В статье представлено описание ацилирования 6-бромбензоксазолин-2-онов с ароматических кислот в присутствии малых количеств $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$. Найдено ряд относительных активностей катализаторов кислот Льюиса бензоилирование 6-бром-бензоксазолин-2-она.

Ключевые слова: Бензоксазолин-2-он, 6-бромбензоксазолин-2-он, катализаторы, кислоты Льюиса, ацилирование, хлорангидриды ароматических кислот, 3-ароил-6-бромбензоксазолин-2-он.

Catalytic acylation of 6-brombenzoxazolin-2-one chloranhydrides of aromatic acids


Abstract. This article gives results about the acylation 6-brombenzoxazol-2-ones with an aromatic acid in the presence of small amounts $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$. A number of relative activity of Lewis acid benzoylation catalysts of 6-bromobenzoxazolin-2-one was found.

Keywords: Benzaksozolin-2-on, 6-brombenzoksazolin-on-2, katalizatory, Lewis acid, acylating, the anhydrides of aromatic acids, 3-aryloil-6-bromobenzoxazole-2-on.

Hozirgi kunda xalq xo‘jaligining turli sohalarida qo‘llanilayotgan preparatlarning asosiy qismini organik moddalar tashkil etadi va ularga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Shuning uchun organik birikmalarni olishning samarali usullarini ishlab chiqish va ularni iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lgan manbalarini topish kimyo fanining oldida turgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda aromatik, geterohalqali, aromatik halqa bilan kondensirlangan geterohalqali birikmalarni iqtisodiy jihatdan qulay va dolzarb bo‘lgan katalizatorlarning oz miqdori ishtirokidagi atsillash usullari ishlab chiqilmoqda, bular amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb qiladi. Hozirgi davrgacha ushbu reaksiyalar aromatik birikmalar misolida keng o‘rganilgan, lekin aromatik halqa bilan kondensirlangan besh a’zoli geterohalqali birikmalar benzazolin-2-onlar misolida kam o‘rganilgan.

Ma’lumki, Fridel-Krafts reaksiyalari aromatik yadroda bo‘ladigan elektrofil almashinish reaksiyalari hisoblanadi. Aromatik birikmalarning atsillash reaksiyalarida katalizatorlar ta’sirida atsillovchi agentlarning qutblanishi sodir bo‘ladi va karbonil guruhi hisobiga karbokation yoki musbat zaryadlangan ion jufti hosil bo‘ladi. Ushbu hosil bo‘ladigan musbat zaryadlangan ion yoki dipol aromatik halqaga xujum qiladi va bunda avval π -, keyin esa σ -komplekslar hosil bo‘lishi orqali boradigan elektrofil almashinish reaksiyasi sodir bo‘ladi [1].



Odatda, yaxshi katalitik samara kuchli Lyuis kislotalarida kuzatilib, ular atsillovchi agentlar bilan ko‘p hollarda ionli tuzlar (C), kuchsizroqlari esa asosan donor-akseptor komplekslar (D) hosil qiladi.




Ma’lumki, Lyuis kislotasining kuchi qancha katta bo‘lsa, atsillovchi agent bilan shunchalik mustahkam donor-akseptor bog‘ hosil qiladi. Donor-akseptor bog‘ning mustahkamligi qanchalik ortsas, karbonil guruhining qutbliligi ham oshib, karbonil guruhi uglerod atomining musbat zaryadini

ko‘payishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida aromatik halqa tomonidan bo‘ladigan nukleofil hujumni osonlashtiradi [2]. Lekin adabiyotlarda ta’kidlanganidek, katalitik atsillash reaksiyalarida katalizatorlarning roli ancha murakkab bo‘lib, u faqatgina atsillovchi agentni faollashtirish bilan chegaralanmasdan, reaksiya mahsuloti bilan katalizator yangi kompleks hosil qilib, atsillash reaksiyasini sekinlashtiradi. Kuchli Lyuis kislotalari bilan hosil bo‘lgan shunday komplekslar mustahkam bo‘lib, kuchsizlarining komplekslari esa oson parchalanadi. Yuqori temperatura ham ushbu komplekslarning parchalanishiga sabab bo‘lib, katalizatorni keyingi reaksiya uchun ajratib chiqaradi [3-5].

Adabiyotlardan ma’lumki [6], benzoksazolin-2-onlarni karbon kislota xlorangidridlari bilan alyuminiy xloridning 3 baravar miqdorida atsillash reaksiyalari orqali 6-atsil-benzoksazolin-2-onlar sintezi amalga oshirilgan. Keyinchalik ushbu atsillash reaksiyalarini rux xloridning kam miqdori ishtirokida aromatik kislota xlorangidridlari bilan amalga oshirish mumkinligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan [7].

6-Brombenzoksazolin-2-onni aromatik kislota xlorangidridlari bilan katalizatorlar ishtirokida atsillash reaksiyalarining borish imkoniyatlarini o‘rganish maqsadida biz turli katalizatorlar ishtirokida benzoillash reaksiyalarini amalga oshirdik. 6-Brombenzoksazolin-2-onning (**I**) benzoilxlorid bilan $1.25 \cdot 10^{-2}$ mol miqdordagi $ZnCl_2$, $FeCl_3 \cdot 6H_2O$, temir atsetilasetonati (TAA) ishtirokida nitrobenzol erituvchisida $200-210^{\circ}C$ haroratda 3 soat davomida qizdirish natijasida benzoillash reaksiyasi natijasida 3-benzoil-6-brom-benzoksazolin-2-on (**III**) sintezi amalga oshirildi (jadval №1).



Sintez bo‘yicha olingan natijalarni solishtirish maqsadida ekvimolyar miqdordagi $AlCl_3$ ishtirokida ham reaksiyalarini o‘rganildi va kutilgan natijaga erishilmadi. Lekin $AlCl_3$ miqdorini 3 molgacha oshirilganda 3-benzoil-6-brombenzoksazolin-2-onning (**III**) unumi 12 % ga yetgan (jadval №1).

Jadval 1.

6-Brombenzoksazolin-2-onni turli xil katalizatorlar bilan benzoillash


Birikma	Katalizator	Reagentlarning nisbati I:II:katalizator	mol	Suyuqlanish harorati, °C	Mahsulot unumi, %
III	$ZnCl_2$	1:1,5:0,0125		157-159	61,0
III	$FeCl_3 \cdot 6H_2O$	1:1,5:0,0125		157-159	68,3
III	TAA	1:1,5:0,0125		157-159	35,1
III	$AlCl_3$	1:1,5:1		-	-
III	$AlCl_3$	1:1,5:2		-	-
III	$AlCl_3$	1:1,5:3		157-159	12,0

Olingan natijalar asosida 3-benzoil-6-brombenzoksazolin-2-onlarning sintezida qo‘llanilgan katalizatorlarni quyidagicha nisbiy faollilik qatoriga joylashtirish mumkin:



Ushbu qatordan ma’lumki, 6-brombenzoksazolin-2-onni (**I**) benzoil xlorid bilan atsillash reaksiyalarining bir xil vaqtida olingan natijalariga ko‘ra $FeCl_3 \cdot 6H_2O$ eng yuqori faollikni, $AlCl_3$ esa eng past faollikni namoyon qilishi aniqlandi.

6-Brombenzoksazolin-2-onning (**I**) almashgan benzoy kislota xlorangidridlari (4-brom-, 4-nitro-, 4-metoksi-, 4-metilbenzoilxloridlar) **IVa-g** bilan reaksiyalarini benzoillash reaksiyasi uchun topilgan sharoitda olib borildi. Biz ushbu reaksiyalarni $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ ning $1,25 \cdot 10^{-2}$ mol miqdori ishtirokida 3 soat davomida nitrobenzol eritmasida $210-220^{\circ}\text{C}$ haroratda qizdirish bilan amalga oshirdik. Reaksiyalar natijasida 3-aroil-6-brom-benzoksazolin-2-onlar (**V a-g**) sintez qilindi (jadval №2).



Sintez qilib olingen 3-aroil-6-brombenzoksazolin-2-onlarning (**Va-g**) tuzilishi IQ- va mass-spektrometriya usullari yordamida tasdiqlandi.

Jadval 2.

3-Aroil-6-brombenzoksazolin-2-onlarning fizik-kimyoviy xossalari

№	R	Suyuqlanish harorati, $^{\circ}\text{C}$	Mahsulot unumi, %	Mass-spektr, m/z, M^+	3-holat guruhi, sm^{-1}
Va	4-Br	218-220	71	398-400	1650
Vb	4-NO ₂	227-229	74	366	1665
Vv	4-CH ₃ O	275-277	55	351	1665
Vg	4-CH ₃	136-138	52	333-335	1650

3-Aroil-6-brombenzoksazolin-2-onlarning (**Va-g**) IQ-spektrlarida 3-holat karbonil guruhining valent tebranishlariga xos yutilish chiziqlarining ($1650-1680\text{sm}^{-1}$) hamda 1,2,4-al mashgan benzol halqasi CH fragmentining notejis deformasiyon tebranishlarining yutilish chiziqlarining ($805-825$ va $870-885\text{ sm}^{-1}$) paydo bo'lishini kuzatish mumkin.

Mass-spektrlarida esa taklif etilgan 3-aroil-6-brombenzoksazolin-2-onlarning (**Va-g**) tuzilishni tasdiqllovchi molekulyar ion va fragmentlarining cho'qqilarini borligi aniqlandi (2-jadval).

2-Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, atsillovchi agentning, ya'ni benzoy kislota xlorangidridlarining aromatik yadrosiga elektronakseptor bo'lgan o'rinnbosarlarning (Br, NO_2) kiritilishi 3-aroil-6-brombenzoksazolin-2-onlarning (**Va,b**) unumini oshirdi.

Bu holatni molekulaga kiritilgan elektronakseptor bo'lgan o'rinnbosarlар (Br, NO_2) ta'sirida karbonil guruhidagi uglerod atomi musbat zaryadining oshishi va elektrofil almashinish reaksiyasida elektrofil agent sifatida atsiliy kationining reaksiyon qobiliyatining ortishi kuzatiladi. Aksincha, molekulaga elektronodonor guruhlarning ($\text{CH}_3, \text{CH}_3\text{O}$) kiritilishi hisobiga 3-atsil-6-brombenzoksazolin-2-onlarning (**V v,g**) unumini kamayganligini kuzatish mumkin.

Shunday qilib, biz 3-aroil-6-brombenzoksazolin-2-onlarning (**Va-g**) sintezini $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ ning $1,25 \cdot 10^{-2}$ mol miqdori ishtirokida amalga oshirdik.

Tajriba qismi

Reaksiyalar borishini va moddalarning tozaligini yupqa qatlamlı xromotografiya (YuQX) usuli bilan nazorat qilindi (Silufol UB-254, ochuvchi (proyavitel)-yod bug'lari yoki 1 g $\text{KMnO}_4 + 4$ ml kons. $\text{H}_2\text{SO}_4 + 96$ ml H_2O).

Moddalarning IQ-spektrlari UR-20 spektrometrda KBr tabletkasida olindi.

Mass-spektrlar MS 25-RF (Kratos) spektrometri ion manbasiga namunani bevosita kiritish yo'li bilan olindi (ionlantruvchi elektronlarning energiyasi 70 eV, ion manbasining harorati 250°C , namunani kiritish tizimining harorati 200°C).

3-Benzoyl-6-brombenzoksazolin-2-on (III) sintezi

Ikki og'izli kolbada 2.15g (0.01 mol) 6-brombenzoksazolin-2-on 20 ml nitrobenzolda eritildi, ustiga 2.1g (0,015 mol) benzoylxlorid va 0.03g (0.000125 mol) $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ qo'shildi. Reaksiyon aralashma qaytarma sovutkich yordamida $210-220^\circ\text{C}$ da 3 soat davomida qaynatildi. Sovitilgandan keyin reaksiyon aralashma 4 %li HCl, suv bilan pH=7 gacha, 5 %li NaHCO_3 va yana suv bilan pH=7 gacha yuvildi. Erituvchi suv bug'i bilan haydaldi, hosil bo'lgan cho'kma ajratilib, suv bilan yuvilib, quritildi va benzol bilan qayta kristallandi. 3-Benzoyl-6-brom-benzoksazolin-2-on 2.16 g (68%) olindi. Suyuqlanish harorati $157-159^\circ\text{C}$, $R_f=0.44$

Jadvalda keltirilgan boshqa 3-aroil-6-brombenzoksazolin-2-onlar (**Va-g**) yuqorida keltirilgan usul bo'yicha olindi.

Adabiyotlar

- Беккер Г. Введение в электронную теорию органических реакций: Пер. с нем. -М.: Мир. 1977. -С. 658
- Терней А. Современная органическая химия. В 2-х т. Пер.с англ. -Москва. Мир. 1981. Т.1. -С.606.
- Мухамедов Н.С., Тауметова Ш.Г., Алиев Н.А. Бензоилирование 2-бен-зоксазолинонов в присутствии малых количеств хлористого цинка // Журн. органич. химии. - Ленинград, 1991. -Т.27, №4. -С. 880-881.
- Mukhamedov N.S., Kristallovich E.L., Plugar V.N., Giyasov K., Aliyev N.A., Abdullayev N.D. Catalytic acylation of benzoxazolin-2-ones in the presence of zinc chloride // Chem. Heterocycl. Comp. -New-York, 1994. -V.30. -P. 982-984.
- Dushamov D.A., Mukhamedov N.S., Aliyev N.A., Bobokulov Kh.M., Levkovich M.G., Abdullayev N.D. Benzazoles. II. Relative activity of catalysts and 4-substituted benzoyl chlorides in the acylation of benzothiazolin-2-ones // Chem. Heterocycl. Comp. -New-York, 2002. -V.38. -P. 438-441.
- Мухамедов Н.С., Гиясов К., Алиев Н.А., Кадыров Ч.Ш. Получение 6-ацил-бензоксазолин-2-онов и некоторые синтезы на их основе. -М.: 1984. 9с.-Деп. в ВИНИТИ 26.12.84. №8334-84.
- Мухамедов Н.С., Кристаллович Э.Л., Плугарь В.Н., Гиясов К., Алиев Н.А., Абдуллаев Н.Д. Каталитическое ацилирование бензоксазолин-2-онов в присутствии хлористого цинка // Хим.гетероцикл. соедин. 1994. №8. С.1136-1138.

UDK 544.543(29)

**GOMOVERATRILAMIN BILAN TRIPTOFAN O'Rtasidagi kondensatlanish va
sikllanish reaksiyalarining borishini kvant-kimyoviy o'rGANISH**

A.F. Ishankulov, A.Sh. Saidov, D.B. To'xtayev,

N.Q. Muxamadiev, T.A. Xolmurodov

Samarqand davlat universiteti

E-mail: Ishankulov-alisher@mail.ru

Annotatsiya. Gomoveratrilamin bilan triptofan o'rtasida boradigan kondensatlanish va sikllanish reaksiyalarining borishi kvant-kimyoviy, reaksiya energetik kesimlarini tuzish orqali o'rGANilgan. Reaksiya mahsulotlarining strukturasi tajribaviy va hisoblangan IQ-spektrlarining moslik darajasi bo'yicha baholangan.

Kalit so'zlar: gomoveratrilamin, triptofan, kondensatsiya, siklizatsiya, kvant-kimyoviy hisoblash, energetik kesim, IQ-spektrlar.

Квантово-химическое изучение реакции конденсации и циклизации гомовератиламина с триптофаном

Аннотация. В работе методом квонтовой химии изучены реакции конденсации и циклизации гомовератиламина с триптофаном построением энергетического профиля реакции.

Структура синтезированных продуктов сравнено оценкой соответствия экспериментально полученных и расчетных ИК-спектров.

Ключевые слова: гомовератриламин, триптофан, конденсация, циклизация, квантово-химический расчет, энергетический профиль, ИК-спектр

Quantum chemical study the progress of the reactions of condensation and cyclization of homoveratrilamin with tryptophan

Abstract. In the work the reactions of condensation and cyclization of homoveratrilamin with tryptophan building energy profile of the reaction have been studied by the method of quantum chemistry. The structure of the synthesized products was compared with the conformity assessment of experimentally obtained and calculated IR spectra.

Keywords: homoveratrilamin, tryptophan, condensation, cyclization, quantum-chemical calculations, the energy profile, IR spectra.


Kirish. Bugungi kunda turlicha biologik faollikni namoyon qiladigan juda ko‘plab izoxinolin hosilalari ma’lum bo‘lib, ularning ba’zilari klinik tekshirishlarning turli bosqichlarida bo‘lsa, ba’zilari dori vositasi sifatida qo‘llaniladi [1-4]. Shuning uchun ham potensial biologik faollikni namoyon qiladigan yangi izoxinolin qatori moddalarni izlashni davom ettirish maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan aromatik halqaga yangi farmakofor fragmentlarni kiritib keyinchalik ularni modifikatsiyalash, hamda aromatik yadrosgagi bir yoki bir necha uglerod atomini azot atomiga almashtirish yoki bo‘lmasa gomoveratrilaminning aromatik karbon kislotalar bilan kondensatlanish va sikllash reaksiyalari asosida izoxinolin hosilalarini sintez qilish borasida olib borilayotgan ishlar juda qiziq va muhimdir [5-7,10]. Shuning uchun ham oldingi ishlarda [8,9] gomoveratrilamin bilan glitsin va fenilalaninlarning kondensatlanish va sikllanish reaksiyalaringin borishi abinitio usulida hisoblashlar yordamida asoslangan.

Ishning maqsadi: Gomoveratrilaminning triptofan bilan kondensatlanish va sikllanish reaksiyalari borishini kvant-kimyoviy tadqiq etish.

Tadqiqot ob’ekti: gomoveratrilamin, triptofan, kvant-kimyoviy hisoblash dasturlari, IQ-spektrlar.

Tadqiqot usullari: IQ-spektraskopiya, kvant-kimyoviy hisoblash usullari, GAUSSIAN 09 dasturi.

Gomoveratrilaminning triptofan bilan kondensatlanish va sikllanish reaksiyalari quyidagi mexanizm bo‘yicha boradi:



Qayd etilgan reaksiyalarning har bir bosqichi alohida-alohida kvant-kimyoviy usulda tahlil etildi. Shu bilan bir qatorda kvant-kimyoviy hisoblashlar natijasida solishtirish uchun reagentlar va reaksiya mahsulotlarning IQ-spektrlari olindi.

Kvant kimyoviy hisoblarlash valent-ajratilgan VZLYP/6-31G(d,r) bazisini qo‘llab, funksional zichlik usulida amalga oshiriladi [9,11].

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. O'rganiladigan reaksiyalar reagentlar va mahsulotlar hamda energetik harakteristikalar va reaksiya tezliklarining doimiy qiymatlari 1-jadvalda berilgan.

1-jadval


Reaksiyalarning energetik xarakterikalari va tezlik doimiysi

N	Energiya	Amin	Amid	Izoxinolin
1	$E_{el} + E_0$	-96.15	-288.49	-304.14
2	$E_{el} + E_t$	-96.85	-289.20	-321.534
3	$G = E_{el} + G_t$	-115.292	-369.45	-354.857
4	k_i	$1.56 \cdot 10^{-42}$	$2.36 \cdot 10^{-31}$	


Jadvaldagagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki kondensatlanish reaksiyasi sikillanish reaksiyasiga qaraganda ancha qiyin boradi va ketma-ket boruvchi reaksiyada ushbu bosqich (1-chi bosqich) limitlovchi vazifasini o'taydi.

Kondensatlanish va sikillanish reaksiyalari mahsulotlarining hisoblangan va tajribada olingan IQ-spektrlarining moslik darajasi qisqa kvadratlar usulida korrelatsiya koeffitsentini hisoblash orqali baholandi. Unga ko'ra korrelatsiya koeffitsentining qiymati mos ravishda amin uchun $r = 0,9844$ amid uchun $r = 0,9954$ izoxinolin hosilasi uchun esa $r = 0,9184$ ni tashkil etdi. Bu qiymatlar hisoblangan va tajribada olingan qiymatlarni bir-biriga mosligini hamda hisoblashlarning to'g'ri bajarilganligini, hamda moddalar strukturasi to'g'ri aniqlanganligini isbotlaydi.

O'rganilgan reaksiyalarning mexanizmini kvant-kimyoviy o'rganishda TS usulida uning energetik kesimini tadqiq etish reaksiya faollanish energiyasini aniqlash no'qtaiy nazarida juda muhim. Shuning uchun ham kondensatlanish va sikillanish reaksiyalarining energetik kesimlari 1 va 2-rasmlarda berilgan.



1-rasm. Kondensatlanish reaksiyasining energetik kesimi



2-rasm. Sikllanish reaksiyasining energetik kesimi

Reaksiyalarda keltirilgan ma'lumotlardan shuni qayt etish kerakki, kondensatlanish reaksiyasi uchun $\Delta H = 37,2$ kkal/mol ni sikillanish reaksiyasi uchun esa $36,9$ kkal/mol ni tashkil etadi.

Xulosalar

1. Gomoveratrilamin bilan triptofan o'rtasida boradigan kondensatlanish va sikillanish reaksiyalarining borishi kvant-kimyoviy, reaksiya energetik kesimlarini tuzish orqali o'rganilgan.
2. Reaksiya mahsulotlarining strukturasi tajribaviy va hisoblangan IQ- spektrlarining qisqa kvadratlar usulida aniqlangan moslik darajasi bo'yicha baholangan.

Adabiyotlar

1. Шкляев Ю.В. Синтез алкалоидов изохинолинового ряда // Химия и компьютерное моделирование. Бутлеровские сообщения. –№ 7. – 2002. С. 21-34

2. Mixaylovskiy A.G. Cyclic azomethines and their hydrogenated derivatives //Chemistry of Heterocyclic Compounds. – 2013. – №. 5. – S. 579-604.
3. Халтурина В. В. и др. Синтез, анальгетическая и противовоспалительная активность (2Z, 5Z)-1-арил-3-гидрокси-5-(3, 3-диалкил-3, 4-дигидроизохинолин-1 (2H)-илен) пент-2-ен-1, 4-дионов //Химико-фармацевтический журнал. – 2009. – Т. 44. – №. 11. – С. 7-9.
4. Дормидонтов М.Ю. и др. Синтез, антиагрегантная и гипотензивная активность производных изохинолина //Химико-фармацевтический журнал. – 1990. – Т. 22. – №. 12. – С. 22-24.
5. Saidov A.Sh., Levkovich M. G., Vinogradova V. I. Synthesis of 1-Alkyltetrahydroisoquinolines //Chemistry of natural compounds. – 2013. – Т. 49. – №. 5. – С. 897–901.
6. Сайдов А.Ш., Виноградова В.И. Синтез тетрагидроизохинолинов на основе гомовератриламина и пиридиновых кислот //Узбекский химический журнал. – 2014. – №2. – С. 16-19.
7. Saidov A.Sh., Uzoqov J.R., Muxamadiev N.Q., Astanova D., Vinogradova V.I. Gomoveratrilamin bilan olein kislota o'rtasidagi kondensatlanish va sikllanish reaksiyalarining borishini kvant-kimyoviy o'rganish // SamDU axborotnomasi, 2016. – N 3 (97), 146-150 betlar.
8. Ishankulov A.F., Saidov A.Sh., To'xtayev D.B., Muxamadiev N.Q., Vinogradova V.I. Gomoveratrilamin bilan fenilalanin o'rtasida boradigan kondensatlanish va sikllanish reaksiyalarining borishi kvant-kimyoviy o'rganish// SamDU axborotnomasi, 2017. – N 3 (102), 85-88 betlar.
9. Ishankulov A.F., Saidov A.SH., To'xtayev D.B., Muxamadiev A.N., Muxamadiev N.Q., Study of gomoveratrilamine with glycine // International journal of engineering sciences & research technology.- (2017).-V.6.-N 8.-P. 130-34.
10. Кирилов О.В. Гетерогенный катализ. - М.: Академкнига, 2004, 679 с.
11. Цирельсон В. Г. Квантовая химия. Молекулярные системы и твердые тела. 2-е издание //М.: Бином. Лаборатория знаний. – 2012.

Ish OT-F7-83 davlat granti doirasida bajarilgan.

UDK 547:665.652.72

VINILATSETAT ISHLAB CHIQARISHNING IXCHAMLASHTIRILGAN TEXNOLOGIYASI

¹ N.I. Fayzullaev, ² R.B. Jumanazarov, ¹ U.M. Norqulov, ³ B.Sh. Omanov

¹ Samarqand davlat universiteti, ² "Navoiyazot" AJ, ³ Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ishda "Zol-gel" texnologiyasi asosida atsetilenni katalitik atsetillash reaksiyasi uchun yuqori unumдорлик, faollik va selektivlikka ega bo'lgan nanokatalizator yaratilgan. Tanlangan yuqori katalitik faollikka ega bo'lgan $(\text{ZnO})_x \cdot (\text{CdO})_y \cdot (\text{ZrO}_2)_z$ /keramzit tarkibli katalizatorning tekstur xarakteristikalari o'rganilgan. Yaratilgan nanokatalizator ishtirotkida vinilatsetat sintezi jarayoni kinetik qonuniyatlari o'rganilib, jarayonning material balansi hisoblangan hamda bug' faza vinilatsetat sintezining takomillashtirilgan texnologik sxemasi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: atsetilen, sirkal kislota, vinilatsetat, katalizator, "zol-gel" texnologiya, material balans, texnologik sxema.

Упрощенная технология производства винилацетата

Аннотация. В работе приведена «Золь-гель» технология создания нанокатализатора, обладающего высокими эффективностью, активностью и селективностью для каталитического ацетилирования ацетилена. Изучены текстурные характеристики катализатора состава $(\text{ZnO})_x \cdot (\text{CdO})_y \cdot (\text{ZrO}_2)_z$ /керамзит с высокой активностью. Изучены кинетические закономерности

синтеза винилацетата на созданном катализаторе, рассчитан материальный баланс. Предложена усовершенствованная технологическая схема парофазного синтеза винилацетата.

Ключевые слова: ацетилен, уксусная кислота, винилацетат, катализатор, «Золь-гель» технология, материальный баланс, технологическая схема.

Simplified technology of vinylacetate production

Abstract. The paper presents the "Sol-gel" technology for creation of nanocatalysts, having high efficiency, activity and selectivity for the catalytic acetylation of acetylene. The textural characteristics of the catalyst $(\text{ZnO})_x \cdot (\text{CdO})_y \cdot (\text{ZrO}_2)_z$ /keramzite with high activity were studied. Kinetic objective laws of synthesis of vinyl acetate on the created catalyst were investigated, material balance calculated. In addition, advanced technologic scheme of vapor phase synthesis of vinyl acetate was offered.


Keywords: acetylene, acetic acid, vinyl acetate, catalyst, "Sol-gel" technology, material balance, scheme.

Kirish


Dunyo bo'yicha vinilatsetatga nisbatan yillik ehtiyoj 5 mln. tonnani, Respublikamizning vinilatsetatga bo'lgan yillik ehtiyoji 30 ming tonnani tashkil etadi. Hozirgi vaqtda vinilatsetat atsetilenden Sharqiy va G'arbiy Evropada va Osiyo mamlakatlari olinmoqda.

Qator rivojlangan davlatlarda vinilatsetat ishlab chiqarish ikki usulda amalga oshiriladi[1-3]:

- 1) Etilenning oksidlanishli eterifikatsiyalani (Moiseev reaksiyasi). Jarayon katalizator ishtirokida etilen, sirka kislota va kislorod o'rtaqidagi reaksiya asosida boradi:



- 2) Atsetilen va sirka kislot o'rtaqidagi bug' fazali katalitik reaksiya asosida:



Birinchi usul etilenning tannarxi atsetilenga nisbatan arzon bo'lganligi uchun keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda yangi ishlab chiqarish jarayonlarining qo'shimcha mahsuloti sifatida arzon atsetilen manbalari topilmoqda. Shuning uchun atsetilenden vinilatsetat ishlab chiqarish istiqbolli bo'lib qolmoqda.

Qayd etilganlardan kelib chiqqan holda vinilatsetat ishlab chiqarishning yangi, tejamkor, chiqindisiz usullari va texnologiyalarini hamda yuqori selektivlik, faollik va unumdonorlikka ega bo'lgan samarali katalizatorlarni yaratish, jarayonning texnologik hamda ishchi parametrlarini modellashtirish va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tajriba qismi

Atsetilenni katalitik atsetillash reaksiyasi oqimli reaktorda quyidagi maqbul sharoitda o'tkazildi: $T=180^{\circ}\text{C}$, $\text{C}_2\text{H}_2:\text{CH}_3\text{COOH}=4:1$, $V_{\text{C}_2\text{H}_2}=280$ soat $^{-1}$ [4-6].

Reaksiya mahsulotlari alanga ionizatsion detektorli gaz – suyuqlik xromato-grafiya usulida quyidagi maqbul sharoitda tahlil qilindi: harakatsiz suyuq faza zarrachalarining o'lchami 0,250-0,315 nm bo'lgan Svetoxrom - 545 dagi 15% li lestosil, o'lchami $2 \times 0,004$ m bo'lgan shisha kolonka, kolonka harorati 100°C , tashuvchi gaz-azot oqimining sarfi 30 ml / min. Sifat taxlili «guvohlar» va ushlanish kattaliklarini taqqoslash asosida, miqdoriy tahlil va ichki normallashtirish usulida amalga oshirildi.

Namunalarning tekstur xarakteristikalari to'g'risidagi ma'lumotlar ASAP 2010 M priborida suyuq azotning $77,35\text{ K}$ da quyi haroratli adsorbsiyasi usulida olindi. Namunalar tahlil qilinishidan oldin 4 soat davomida 120°C da quritildi va 6 soat davomida 550°C da kuydirildi.

Solishtirma sirt yuzasi BET usulida aniqlandi. G'ovaklarning umumiy hajmi maksimal to'yinganda adsorbilangan azotning miqdori bo'yicha hisoblandi. G'ovaklarning o'lchami bo'yicha taqsimlanishi BJH (Barret-Joyner-Xalendr) usuli bo'yicha aniqlandi.

Tajriba natijalari va ularning muhokamasi

Atsetilen va sirka kislotadan vinilatsetat olish uchun rux atsetat, kadmiy atsetat va sirkoniylarining eritmalarini o‘lchami 200-500 mkm bo‘lgan mikrosferik nanog‘ovakli keramzitga yuttirdik. Katalizatorning g‘ovaklarining umumiy hajmi 0,3-0,41 sm³/g, solishtirma sirt yuzasi 50-170 m²/g.

Katalizatorni tutuvchi modda sifatida keramzit ishlataldi, uning sirt yuzasi 690-720 m²/g, g‘ovaklarining umumiy hajmi-0,87-0,92 sm³/g, mikrog‘ovaklarining hajmi-0,24-0,25 sm³/g. Granulalar diametri 200-500 mkm. Atsetilenni atsetillash reaksiyasi 170-220°Cda, atsetilennenning hajmiy sarfi 0,54-0,84 l/sm³(kat)·soat, sirka kislotaning massaviy sarfi 0,3-0,5 g/sm³(kat)·soat sharoitda o‘tkazildi.

Katalizator quyidagi sharoitda tayyorlandi: mikrosferik nanog‘ovakli tutuvchi modda (keramzit)ga 60°C da sirkulyasion yuttirish usulida rux atsetat va kadmiy atsetatlarning 5-25% li va sirkonil nitratning 1-3% li eritmali yuttirildi. Tuzlarni yuttirish vaqt 60-90 minut oralig‘ida o‘zgartirildi. Yuttirish tutuvchi modda (keramzit):eritmaning 1:3-1:8,5 nisbatda olib borildi. Yuttirish jarayoni tugagandan so‘ng katalizator xona haroratida 24 soat, so‘ngra quritish shkafida 100-130°C da (haroratni har 1 soatda 10°C ga ko‘targan holda) quritildi. Katalizatorda rux atsetatning miqdori 11-30% ni tashkil etdi.

Hajmi 9 sm³ bo‘lgan katalizator oqimli kvars reaktorga tushirildi va sistema 10 minut davomida 15 l/soat tezlikda azot oqimida yuvildi. Vinilatsetat sintezi 180°C da odatdagি atmosfera bosimida o‘tkazildi. Yuqorida sharoitda katalizatorning ishlash muddati 2000 soatni tashkil etdi.

Atsetilenni bug‘ fazasida katalitik atsetillash reaksiyasida birinchi marta «Zol-gel» usulida tayyorlangan d-elementlarning tuzlaridan tayyorlangan katalizatorlarning katalitik faolligi o‘rganildi (1-jadval). 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tarkibida rux, kadmiy, sirkoniylar oksidlari saqlagan katalizator (№4) yuqori selektivlik va unumdonorlikka ega.

1-jadval

Atsetilenni katalitik atsetillash reaksiyasida katalizator faolligiga boshlang‘ich moddalarning ta’siri
(T=180°C, C₂H₂:CH₃COOH =4:1, V_{C₂H₂}=280 soat⁻¹, promotor: 1.8 % K₂Cr₂O₇)

№	Katalizator tarkibi	CH ₃ COOH ning konversiyasi, %		Selektivlik S %
		Umumiy	Vinilatsetatga	
1	ZnO/keramzit	60,0	43,0	71,1
2	ZnO:CdO/keramzit	80,6	73,5	91,2
3	ZnO:ZrO ₂ /keramzit	51,4	38,2	74,3
4	ZnO:CdO:ZrO ₂ /keramzit	85,4	79,8	93,4
5	ZnO:Cr ₂ O ₃ /keramzit	46,2	30,6	66,2
6	Cr ₂ O ₃ :CdO:ZrO ₂ /keramzit	67,8	49,2	72,5
7	ZnO:Cr ₂ O ₃ :ZrO ₂ /keramzit	72,1	51,9	72,0
8	ZnO:Fe ₂ O ₃ :Cr ₂ O ₃ :/keramzit	70,9	48,0	67,7

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, №4 katalizator ishtiroyida reaksiyaning tanlangan maqbul sharoitida sirka kislotaning umumiy konversiyasi 85.4% ni, vinilatsetatga nisbatan konversiyasi 79.8 % ni tashkil etdi. Shundan so‘ng №4 katalizator faol komponentlarining massa nisbatlarining ta’sirini o‘rgandik. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Atsetilenni katalitik atsetillash reaksiyasida katalizator faolligiga katalizator faol komponentlari massa nisbatlarining ta’siri

№	Katalizator tarkibi				Katalizator unumdonorligi, g/l kat·soat
	Zn(CH ₃ COO) ₂ : Cd(CH ₃ COO) ₂	Zn(CH ₃ COO) ₂ , massa, %	Cd(CH ₃ COO) ₂ , massa, %	ZrO(NO ₃) ₂ massa, %	
1	9:1	25,6	2,8	-	205
2	9:1	23,7	2,6	1,0	328
3	9:1	21,8	2,4	2,0	316

4	3:1	20,0	6,7	-	230
5	3:1	18,6	6,6	1,0	363
6	3:1	17,5	5,8	2,0	347
7	1:1	15,0	15,0	-	315
8	1:1	13,5	13,5	0:1	440
9	1:1	11,5	11,5	1,0	450
10	1:1	11,0	11,0	2,0	430
11	1:1	10,0	10,0	5,0	418

2-jadvaldan ko'riniib turibdiki, katalizator faol komponentlari massa nisbatlari $Zn(CH_3COO)_2:Cd(CH_3COO)_2:ZrO(NO_3)_2=11.5:11.5:1.0$ (massa foizlarda) bo'lganda katalizatorning unumdoorligi eng yuqori qiymatga ega bo'ladi.

1-jadvalda keltirilgan №4 katalizator ishtirokida vinilatsetat unumiga, jarayonning selektivligiga hamda boshlang'ich moddalar konversiyasiga turli omil (harorat, hajmiy tezlik, $C_2H_2:CH_3COOH$ mol nisbatlari, katalizatorni tayyorlash uslubi kabi) larning ta'siri o'rganildi.

Vinilatsetatning hosil bo'lish unumiga hamda jarayonning selektivligiga $C_2H_2:CH_3COOH$ nisbatlarining ta'siri o'rganilganda eng maqbul sharoit $C_2H_2:CH_3COOH$ nisbati 4:1 ekanligi aniqlandi. Sirka kislotani vinillash reaksiyasi unumiga haroratning ta'siri $150-240^0C$ oralig'ida o'rganilganda, vinilatsetatning unumi 185^0C gacha ortishi va harorat 185^0C dan oshganda vinilatsetatning parchalanishi va qo'shimcha moddalar hosil bo'lishi tufayli reaksiya unumi kamayishi kuzatildi.

Olingan eksperimental ma'lumotlarni interpretatsiya qilish uchun parametrlar o'zgarishlarini (reaksiya tezligi, reaksiyaning tezlik konstantasi, adsorbsion koeffi-sient va parsial bosim) keng intervalda qanoatlantiradigan kinetik tenglamalar topish zarur. Bu tenglamalarning kinetik parametrlari aniqlagandan so'ng, ulardan qaysi biri eksperimental ma'lumotlarni qanoatlantirishi haqida o'yash mumkin.

Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, atsetilenni katalitik atsetillash reaksiyaning kinetikasi quyidagi sharoitlarda va 3 turdag'i katalizatorlarda batafsil o'rganilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib atsetilenni atsetillash reaksiyasi uchun quyidagi kinetik tenglamalar tanlandi va mos parametrlar hisoblandi.:

1. $Zn(OAc)_2/C$; ($t=180-220^0C$); $W=K P_{C_2H_2} / (1+b P_{CH_3COOH})$
2. $ZnO/\gamma Al_2O_3$; ($t=230-270^0C$); $W=K P_{C_2H_2} \cdot P_{CH_3COOH}$
3. $Cd(OAc)_2/\gamma Al_2O_3$; ($t=170-230^0C$); $W=K P_{C_2H_2} \cdot P_{CH_3COOH} / (1+b P_{CH_3COOH})$

Reaksiyani qaysi kinetik tenglama to'la qanoatlantirishini aniqlash uchun yuqorida berilgan tenglamalarning adekvatligi tekshirildi. Berilgan tenglama va tajriba natijalaridan kelib chiqqan holda, kinetik tenglama parametrlari tajribaviy qiymatlar kvadratlari yig'indisining chetlanishi nazariy hisoblangan qiymatdan minimal darajada farq qilishi orqali aniqlandi. Kinetik tenglamaning adekvatlik mezoni sifatida quyidagi sharhning bajarilishi olindi:

$$\sum_{i=1}^n (W_{\text{амалий}} - W_{\text{назарий}})^2 \Rightarrow \min .$$

Tenglamalarning adekvatligini tekshirish tajribada olingan va nazariy hisoblash natijalari orasidagi farqning o'rtacha kvadratik chetlanishi qiymati (S) asosida amalga oshirildi. Aniqlangan kinetik konstantalar va adsorbsiya koeffitsientlari turli kinetik tenglamalar yordamida atsetilenden vinilatsetat sintezi reaksiyasining tezligini aniqlashda qo'llanildi. Atsetilenni atsetillash reaksiyasining tezligiga boshlang'ich moddalar parsial bosimlarining, hajmiy tezlik va haroratning ta'sirini o'rganish hamda xromatografik tahlil natijalariga ko'ra atsetilenni atsetillash reaksiyasi quyidagi tenglamani qanoatlantiradi:

$$W=K P_{C_2H_2} \cdot P_{CH_3COOH} / (1+b P_{CH_3COOH})$$

Atsetilenni katalitik atsetillash reaksiyasi ekzotermik jarayon bo'lib, $\Delta H_{298}^0 = -98$ kJ/mol.

Reaksiya qaytar. Atsetilenden vinilatsetat sintezi jarayonining $ZnO:CdO:ZrO_2$ /keramzit katalizatori ishtirokida faollanish energiyasi $E_a = 29.2$ kJ/mol ga tengligi aniqlandi.

Reaksiyaning muvozanat konstantasi bilan harorat quyidagi bog'lanishga ega:

$$\lg K_p = 4400/T - 7,22 \cdot \lg T + 2,47 \cdot 10^{-3} \cdot T + 11,3$$

bu erda T-harorat, K.

3-jadval

Vinilatsetat unumi va muvozanat konstantasi


T, °C	T, K	$\lg K_p$	K_p	X, %
150	423	3,783	6064,57	99,9
200	473	2,458	287	98,7

Atsetilenni katalitik atsetillab, vinilatsetat sintezi jarayonining mukammallashtirilgan texnologiyasini yaratish maqsadida reaksiya tezligiga turli omillarning ta'siri o'rganildi. O'rganilgan haroratlar va reagentlar konsentratsiyalarining keng o'zgarish oralig'ida vinilatsetatning hosil bo'lish unumi atsetilen konsentratsiyasi ko'payishi bilan ortishi, sirka kislota parsial bosimi ortishi bilan esa kamayishi isbotlandi. Reaksiyon aralashmaga vinilatsetatning kiritilishi uning hosil bo'lish tezligiga ta'sir ko'rsatmaydi. Suvning kiritilishi esa 210°C dan yuqori haroratda vinilatsetatning gidrolizini kuchaytiradi, katalizatorning faolligiga esa ta'sir ko'rsatmaydi. Atsetilen : suv mol nisbati 10:1 ga va sintez harorati 200°C gacha oshirilganda va kontakt vaqt 4 sekund bo'lganda sirka kislotaning konversiyasi amalda 100% ga etadi. Atsetilen: suv mol nisbatini 10:1 mol nisbatda, haroratni 200°C da ushlab turgan holda kontakt vaqtini 4 sekunddan 2 sekundga kamaytirilganda vinilatsetatning hosil bo'lish unumi 95-96% ga etadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida bug' faza vinilatsetat sintezining takomillashtirilgan texnologik sxemasi taklif etildi. Yangi tayyorlangan sirka kislota ajratish sexidan tushayotgan regeneratsiya qilingan kislota bilan aralashib, isitilan suv bug'lari bilan naysimon bug'latgich (1) ga yuboriladi. U yerga tozalangan atsetilen ham kelib tushadi. Sirka kislotaning bug'lanishi 70-80°C da atmosfera bosimiga yaqin ($P = 0,13-10,4 \text{ MPa}$) bosimda atsetilen oqimida o'tkaziladi. Bundan keyin bug'-gazli aralashma tomchilarini ajratish uchun separator (2) ga kiritiladi. Keyin reaktor (5) dan chiqayotgan boshlang'ich bug'-gazli aralashma gaz-gaz issiqlikni almashtirib beruvchi qurilma (3) da qizdiriladi. Keyin boshlang'ich bug'-gazli aralashma isitgich (4) da suv bug'lari (0,9MPa) yoki boshqa issiqlik tashuvchilar, masalan, difenilli aralashma yordamida 220-230°C gacha qizdiriladi. Katalizatorning haydalishini kamaytirish uchun bug'-gazli aralashma reaktorning yuqorisidan yuboriladi. Reaktor naysimon qurilma bo'lib, ushbu nay katalizator bilan to'ldiriladi, naylararo bo'shliqlarga issiqlik tashuvchi joylashtiriladi (reaksiya issiqligini yo'qotish uchun). Bitta agregatning vinilatsetatga nisbatan quvvati yiliga 22 ming tonnani tashkil etadi. Issiqlikni qaytarish uchun naylararo bo'shliqda bug' olish bilan suvli kondensatni bug'latish usulini qo'llab ham amalga oshirish mumkin. Zaruriy holda issiqlikni yo'qotishda suyuq difenilli aralashmani bug'latish bilan ham amalga oshirish mumkin. Difenilli aralashma issiqlikni almashtirgich (6) da suvli kondensatni bug'latish hisobiga sovutadi.

Reaktor gazi reaktor (5) ning pastki qismidan chiqib issiqlik almashtirgich orqali suvli sovutgich (7) ga va keyin tozalashga yuboriladi. Katalizator changlarini ushlab turish kengaytirgich (9) bilan Ventur truba (8) da va separator (10) da amalga oshiriladi. Qurilma (8-10) larda aylanuvchi etilmagan vinilatsetat yordamida katalizator changlarining koagulyasiyasi amalga oshadi va ular bug'-gazli aralashmadan separator (10) da ajratiladi. Katalizator changlari qoldiqlari separator (10) ning pastki qismidan chiqarib olinadi va regeneratsiya qilish uchun yo'naltiriladi. Kondensat separator (10) dan nasos yordamidan qaytadan Ventur nayi (8) ga yuboriladi.

Bug'-gazli aralashma sovutilgan vinilatsetat bilan ho'llanib Skrubber (11) ning pastki qismiga kelib tushadi. Skrubberning yuqori qismidan kondensirlanadigan bug'-gazli aralashma komponentlari chiqadi, vinilatsetat kondensati (12) ga yig'ib olinadi. Etilmagan vinilatsetatning bir qismi nasos (13) bilan sovutgich (14) ga yuboriladi va u erda suv bilan 30-35°C gacha sovutiladi. Sovutilgan vinilatsetat ikki qismga bo'linadi: bir qismi skrubberni ho'llash uchun yuboriladi, ikkinchi qismi sovutgich (15) ga yuboriladi va u erda tuzli eritma yordamida 7°C gacha sovutiladi. Sovutilgan vinilatsetat ham ikki qismga bo'linadi: bir qismi ho'llash uchun skrubberga yuboriladi, ikkinchi qismi sovutgich (16) da tuzli eritma bilan -6°C gacha sovutiladi va skrubberni ho'llash uchun uning yuqori qismidan yuboriladi. Skrubber (11) dan chiqayotgan tarkibida kam miqdorda kondensirlanmagan organik mahsulotlar saqlovchi atsetilen (1-4) qurilmalar orqali reaktor (5) ga qayta yuboriladi.



1-kolonna-bug'latgich; 2,10,21-separatorlar; 3,6-issiqlik almashtirgichlar; 4-isitgich (qizitgich); 5-reaktor; 7,14-suvli sovutgichlar; 8-Ventur nayi; 9-ken-gaytirgichlar; 11-skrubber; 12,22-yig'gichlar; 13-nasoslar; 15,16-tuzli sovutgichlar; 17,18,19-rektifikatsion kolonnalar; 20-distillyasion kub; I –toza atsetilen; II –toza sirkə kislota; III –polimerlar va ingibitorlar; IV –kroton fraksiyasi; V –engil fraksiya; VI –vinilatsetat; VII –bifenilli aralashma (issiqlik uzatuvchi); VIII –tozalashga atsetilen; IX –koagullanadigan katalizator changlari; X –qiyin qaynovchi fraksiya (etilidendifiatsetat, polimerlar, ingibitorlar); XI –suv.

1-rasm. Bug' fazada atsetilen va sirkə kislotadan vinilatsetat olishning texnologik sxemasi

Etilmagan vinilatsetat (12) sig'imdan oson uchuvchan komponentlardan ajratish uchun rektifikatsion kolonna (17) ga yuboriladi. Kolonna flegmalar soni $R=2-3$ bo'lganda ishlaydi. (17) kolonna distillyati oraliq sig'im (18) orqali oson uchuvchan komponentlar (atsetaldegid, atseton, metilatsetat, vinilatsetatning suv bilan geteroazeotropi) dan ajratish uchun rektifikatsion kolonna (19) ga yuboriladi. Bu kolonna flegma soni $R = 50$ bo'lganda ishlaydi. Vinilatsetatni polimerlardan va ingibitoridan ajratish uchun distillyasion kub (20) dan foydalanish ham mumkin. Rangli mahsulotlar (17) kolonnadan kroton fraksiyani sirkə kislotadan ajratish uchun rektifikatsion kolonna (21) ga yuboriladi. Flegma soni $R = 100$ bo'lganda distillyyat $\approx 80\%$ sirkə kislota, $\approx 20\%$ kroton aldegid saqllovchi fraksiyalarga haydaladi. Rektifikatsion kolonna (22) da sirkə kislota etilidendifiatsetat, polimerlar va ingibitorlardan ajratiladi. (23) va (1-4) qurilmalar orqali sirkə kislota qo'shimcha ravishda toza sirkə kislota bilan aralashtirilib reaktor (5) ga yuboriladi. Ushbu texnologiya 99,9% dan kam bo'lмаган tozalikdagи vinilatsetat olinishini ta'minlaydi.

Vinilatsetatni reaksiyaga kirishmagan sirkə kislotadan va qo'shimcha mahsulotlardan tozalashning 2 yo'li bor:

- 1) Bosqichli kondensatsiyalash, avvaliga suvli kondensatorda so'ngra tuzli eritmada (-15 dan -20°C gacha).
- 2) Absorbsiya (sirkə kislota uchun adsorbent sifatida reaktoring bug' gaz aralashmali kondensatini ishlatish mumkin, yoki tashqi adsorbent sifatida ksilol ishlatiladi).

Iqtisodiy jihatdan 2-variant qulay. Bu holda adsorbentni sovutishda issiqlik uzatish koeffitsienti katta (bosqichli kondensatsiyaga ko'ra). Adsorbentni sovutish zarur, chunki adsorbsiya vaqtida issiqlik ajralib chiqadi, bu esa adsorbsiyani qiyinlashtirib, desorbsiyani kuchaytiradi. Adsorbent sifatida kondensatni ishlatish maqsadga muvofiq chunki bunda vinilatsetat qo'shimcha mahsulotlar bilan

ifloslanmaydi va sirka kislota suyultirilmaydi (kuchli suyultirilganda vinilatsetatni ajratish qiyinlashadi).

Vinilatsetat sintezi reaktorini modellashtirish. Ko'pgina jarayonlar texnologiyasi katalizatorlarning faolligi bilan to'liq bog'liq. Katalizatorlarning faolligi va selektivligi katalitik reaksiyaning tezligini va kechish sifatini ta'minlab beradi. Atsetilen va sirka kislotadan vinilatsetatning sintezi qo'zg'almas qatlamlari katalizator ishtirokida ideal chiqaruvchi naysimon reaktorda olib borildi. Katalizatorning dezaktivlanishini inobatga olib, atsetilen va sirka kislotadan vinilatsetat sintezi uchun ideal siqib chiqaruvchi reaktorning matematik modelini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:

$$\frac{\partial x}{\partial l} = \frac{\Theta(v+1)}{v_{x_{\text{хажмий}}}} r(m, V_{x_{\text{хажмий}}}, T, x);$$

$$\frac{\partial \Theta}{\partial t} = \Theta k_p(T)$$

YAqinlashish sharoitida:

$$x(0, t) = 0; \quad t \in [0, t_k]; \quad \Theta(\ell, 0) = \Theta_0; \quad \ell \in [0, \ell_p]$$

bunda V -atsetilen va sirka kislota hajmiy nisbatlari; $v_{x_{\text{хажмий}}}$ -xom-ashyo sarfining hajmiy tezligi; t -katalizatorning ta'sir vaqtisi; Θ -katalitik faollik o'zgarishini ifodalovchi kattalik; T -harorat ($T \leq 180^0C$); ℓ_p -reaktor uzunligi; t_k -katalizatorning ishlash vaqtisi.

Hisoblash natijasida vinilatsetat ishlab chiqarishda naysimon reaktori ishlashining asosiy parametrleri aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Vinilatsetat ishlab chiqarishda naysimon reaktor ishlashining asosiy parametrleri


T, 0C	P, MPa	$U_{g \cdot p \cdot mg}$, m/s	Issiqlik tashuvchi	G, ming tonna/yil	D, m	h,m	N, min dona
170-200	0,1	0,60	Qaynoq suv	50	2,5	6,5	4,7

Vinilatsetat ishlab chiqarishning material balansi. Atsetilen va sirka kislotadan vinilatsetat sintezi quyidagi reaksiya asosida boradi:




Katalizator sifatida turli tutuvchilar (faollashtirilgan ko'mir, silikagel, alyuminiy oksid, pemza va boshqalarga)ga shimdirilgan rux atsetat, kadmiy atsetat, yoki ularning aralashmasi ishlatiladi. Ishlatilayotgan katalizator $180-270^0C$ da qoniqarli unumdorlikka ega bo'ladi.




Tutuvchi moddadan rux atsetatning chiqib ketishi va rux atsetatning quyidagi reaksiya natijasida parchalanishi oqibatida katalizator faolsizlanadi:



Hosil bo'lgan rux oksidi asosiy reaksiyada faol emas. Biroq reaksiya sharoitida sirka kislota bilan reaksiyaga kirishib, rux atsetat hosil qiladi:




Vinilatsetat sintezi jarayonida asosiy reaksiyadan tashqari quyidagi qo'shimcha reaksiyalar ham boradi:



Qo'shimcha reaksiyalar bormasligi uchun reaksiya mo'l miqdordagi atsetilen ishtirokida olib boriladi.

Atsetilen va sirka kislotadan vinilatsetat olish jarayonini quyidagi umumiyl tenglama bilan ifodalash mumkin:



Reaksiya 180^0C va normal atmosfera bosimida o'tadi.

5-jadval

Vinilatsetat ishlab chiqarishning material balansi

$$\text{C}_2\text{H}_2 \div \text{CH}_3\text{COOH} = 4:1; \quad V_{\text{C}_2\text{H}_2} = 280 \text{ coam}^{-1};$$

$$K_{\text{CH}_3\text{COOH}} = 85,4\%; \quad K_{\text{CH}_3\text{COOH}} \rightarrow BA(79,8); \text{ kat :} (\text{ZnO})_x \cdot (\text{CdO})_y \cdot (\text{ZrO}_2)_z$$

Komponentlar	Reaktorgacha		Reaktordan so'ng	
	kg/soat	kmol/soat	kg/soat	kmol/soat
Texnik atsetilen, shundan	338,542			
Sof atsetilen	325	12,5	241,54	9,29
Qo'shimchalar	13,542		13,542	
Muzli sirka kislota (96%) shundan	195,3125			
Sof sirka kislota	187,5	3,125	27,375	0,456
H ₂ O	7,8125	0,434	-	-
Vinilatsetat	-	-	183,15	2,13
Atseton	-	-	13,867	0,239
Atsetaldegid	-	-	20,311	0,462
Kroton aldegid	-	-	10,963	0,157
Etilidendifiatsetat	-	-	14,6	0,1
CO ₂	-	-	8,5	0,193
Jami	533,850	16,06	533,848	13,03

Xulosa

- “Zol-gel” texnologiyasi asosida atsetilenni katalitik atsetillash reaksiyasi uchun yuqori katalitik faollikka ega bo‘lgan $(\text{ZnO})_x \cdot (\text{CdO})_y \cdot (\text{ZrO}_2)_z$ /keramzit tarkibli katalizator yaratildi.
- Atsetilenni katalitik atsetillash reaksiyasida maqsadli mahsulot unumiga turli omil (harorat, hajmiy tezlik, $\text{C}_2\text{H}_2:\text{CH}_3\text{COOH}$ mol nisbatlari, katalizatorni tayyorlash uslubi kabi) larning ta’siri o‘rganildi.
- Olingan natijalar asosida kinetik model tuzilib, ana shu kinetik model asosida vinilatsetat sintezi jarayoni maqbullashtirildi.
- Tanlangan yuqori katalitik faollikka ega bo‘lgan $(\text{ZnO})_x \cdot (\text{CdO})_y \cdot (\text{ZrO}_2)_z$ /keramzit tarkibli katalizatorning tekstur xarakteristikalari va vinilatsetat sintezi jarayonining kinetik qonuniyatları o‘rganildi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida bug‘ faza vinilatsetat sintezining takomillashtirilgan texnologik sxemasi taklif etildi.

Adabiyotlar

- Темкин О.Н., Абанто- Чавез Х.Й., Хоанг Ким Бонг // Кинетика и катализ. 2000. Т. 41. № 3. С. 136-138.
- Роменский А.В., Мостовая Е.Н.. Хім. пром-ть України. 2005. № 3. С. 50-52.
- Yu Zhengxi, Xu Jianben, Zheng Qi, Lin Xingyi, Zhang Yingying // Petrochem. Technol.. 2006. 35. № 12. Р. 1140-1144.
- Файзуллаев Н.И., Туробжонов С.М., Мирзахмедов Б.Х. Буғ фазада винилацетатнинг катализитик синтези // ТошДТУ хабарлари.-2014.-N 2.-167-175 бетлар.
- Файзуллаев Н.И., Мурадов К.М. Исследование реакции каталитического парофазного синтеза винилацетата на нанесенном катализаторе// Химическая промышленность.-2004.-Т. 81.-N3.-С.136-138.
- Файзуллаев Н.И. Ацетиленни буғ фазада катализитик ацетиллаш//ДАН РУз. - 2002. - N 5. -С. 47-50.

УДК: 628.3

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ПРИМЕНЕНИЯ БИОСОРБЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ

С.Д. Аронбаев, А.М. Насимов, Д.М. Аронбаев

Самаркандский государственный университет

E-mail: diron51@mail.ru

Аннотация. Обобщается опыт разработки и применения биосорбентов на основе микроорганизмов различных таксономических групп и отходов фармацевтического, пищевого и сельскохозяйственных производств для извлечения тяжелых металлов, радионуклидов, органических веществ из сточных и поверхностных вод. Намечены тенденции развития биосорбционных технологий.

Ключевые слова: биосорбция, экотоксиканты, тяжелые металлы, радионуклиды, органические поллютанты, извлечение микроорганизмами.

Trends of development and application of biosorption technologies in the solution of environmental problems

Abstract. The experience of development and application of biosorbents on the basis of microorganisms of various taxonomic groups and wastes of pharmaceutical, food and agricultural industries for extraction of heavy metals, radionuclides, organic substances from sewage and surface water is generalized. The trends of development of biosorption technologies are outlined.

Keywords: biosorption, ecotoxicants, heavy metals, radionuclides, organic pollutants, extraction by microorganisms

Atrof-muhit muammolarini hal qilishda biosorbsion texnologiyalarini rivojlantirish va ularni qo'llash talablari

Annotatsiya. Turli taksonomik guruhlar va og'ir metallar, radionuklidlar, organik moddalarni kanalizatsiya va yer usti suvlaridan chiqarish uchun farmatsevtika, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sanoatining chiqindilari asosida biosorbentlarni ishlab chiqish va qo'llash tajribasi umumlashtirildi. Biosorpatsiya texnologiyalarini rivojlantirish tendentsiyalari belgilandi.

Kalit so'zlar: biosorpsiya, ekotoksikanlar, og'ir metallar, radionuklidlar, organik ifloslantiruvchi moddalar, mikroorganizmlar tomonidan ekstraktsiya qilish.

Введение

Загрязнение окружающей среды тяжелыми металлами, радионуклидами, органическими поллютантами является острой проблемой для биосфера. К настоящему времени накоплен значительный материал о потенциале биотехнологических методов очистки растворов, содержащих уран, стронций, цезий и йод. Такие методы считаются наиболее экономически выгодными и экологически безопасными, способные отвечать требованиям «зеленой химии» [1]. Поэтому микробная трансформация тяжелых металлов и радионуклидов является предметом повышенного внимания многих научных коллективов.

Установлено, что микроорганизмы различных таксономических групп способны накапливать тяжелые металлы, радионуклиды и прочие экотоксиканты из объектов окружающей среды [2-4]. Так, еще В. И. Вернадский в 1965 году отмечал поразительную способность живых организмов концентрировать отдельные элементы из окружающей среды, которую он называл концентрационной функцией. Фактор концентрирования экотоксикантов по отношению к среде, из которой они извлекались, может составлять многие сотни и тысячи раз. Такие способности микроорганизмов не остались незамеченным микробиологами, химиками, биотехнологами, экологами. Однако систематизированные исследования по изучению сорбционных свойств микроорганизмов начались сравнительно недавно, и в основном относились к изучению резистентности микроорганизмов к тяжелым металлам и токсинам органических соединений, генно-инженерным решениям по модификации

микроорганизмов, толерантных к загрязнениям их среды обитания, понятию механизмов взаимодействия тяжелых металлов с клеточными структурами микроорганизмов.

Talabalar mustaqil ishini modellashtirish: o'tilgan nazariy ma'lumotlarni takrorlash; mavzuga oid asosiy savollarni qo'yish; mavzu yuzasidan chuqur bilim olishni va uning tarkibini aniqlash; har bir mavzuning qisqa mazmunini tuzish; mashqlar va masalalarni yechish; bajariladigan o'quv faoliyat tahlili va o'zini o'zi baholay bilish; malaka va ko'nikmani shakllantirish; mavzu mazmuni bo'yicha savollar, krossvordlar va testlar tuza bilish.

Topshiriqlarni tabaqlashtirish: uslubiy, amaliy va ilmiy ishlar uchun ada-biyotlar tanlash; adabiyotlarni sharhlash; masalani yechish; muammoli vaziyatlar; talabaning ilmiy tadqiqot ishi; xulosada bilim test sinovi orqali nazorat qilish.

Talabalarning mustaqil ishi bosqichlari va ularni qabul qilish tartibi: tavsiya qilinadigan adabiyotlarni to'plash; dars mavzusining rejasи va uslubiy ishlanmasi hamda mavzuga oid savollar bilan tanishish; mavzuga oid savollar ichidan o'qiladiganlarini va konspektlashtiriladiganlarini ajratib olish; ma'ruzalar matni, darslik, monografiya asosida kerakli sxema va jadvallar tuzib olish va hokazo.

Talabalarning mustaqil ishi uchun zarur bo'ladigan ba'zi ta'lif vositalari kompleksi: fanning asosiy mazmunini o'z ichiga olgan uslubiy ishlanmalar; fanning ichki bog'lanishlari matritsasi; didaktik tarqatma materiallar; ma'ruzalarning qisqacha sharhi; savollar va testlar to'plami; audio-, kino-, bideo-filmalar; masala va mashqlar to'plami va hokazo.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning ba'zi ko'rinish va shakllari (bunda o'qituvchining rahbarligi): konspektlashtirish (saralab tekshirish); adabiyotlar va Internet ma'lumotlari sharhi (mavzularni ishlab chiqish va tekshirish); maqola va kitobga annotatsiya yozish (annotatsiyalar namunalari va tekshirish); izlanish-tadqiqot xarakteriga ega topshiriqlarni bajarish (topshiriqlarni ishlab chiqish, izlanish holatlarini yaratish, mavzular yuzasidan maxsus kurs va seminarlarga tayyorlash, mavzular kartotekasini tuzish); ilmiy-uslubiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish va kerakli eksperimentlar o'tkazish (o'rganib chiqilgan adabiyot bo'yicha suhbat uyushtirish, bundan keyingi ishlarning rejasini tuzish, axborot olishning uslubini ishlab shiqish); ma'ruza: ma'ruza rejasini tuzish va unga amal qilish; ma'ruza konspektini qayta ishlab chiqish; konspekti qo'shimcha adabiyotlar va Internet sahifalar manzillari bilan to'ldirib borish (tayyor rejani taklif etish yoki talabaga o'zi reja tuzishga imkon berish, yakuniy holatni tekshirish); seminarda: seminarda chiqish qilish uchun konspekt, referat, mashqlar bajarishga tayyorgarlik (seminar rejasini tuzish, adabiyotlarni tavsiya etish, topshiriqlarni tekshirish); laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarda: mos yo'riqnomalar, ko'rsatma va uslubiy tavsiyalarga asosan kerakli natijalarni olish (topshiriqlarni ishlab chiqish, uslubiy tavsiyalar va algoritmlar yaratish, erishiladigan natijaning darajasini ko'rsata bilish); ilmiy to'garakda: mustaqil ishi, nazorat ishi, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlarning bajarilishni eshitib borish (ularning mavzularini ishlab

chiqish, maslahatlar tashkil etish va umumiyoq rahbarlik qilish); nazorat ishi – yozma bajariladi (topshiriqlarni ishlab chiqish va tekshirish); amaliyot jarayonida kuzatilgan va yig'ilgan materiallar bo'yicha topshiriqlarni bajarish (topshiriqlarni ishlab chiqish va tekshirish).

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq: ijodiy xarakterdagi topshiriqlar bilan talabani ko'p yuklab qo'ymaslik; talabaga aniq va to'la yo'riqnomalar berish (topshiriqlarning maqsadi; bajarilish shartlari; hajm; namuna va hokazo); mavzularni va topshiriqlarni ishlab chiqish, kartoteka tuzish; mustaqil ishning uslubiy ta'minotini yaratish; talaba bilan suhbatta quyidagilarga jiddiy e'tibor qaratish; adabiyotlarni sharhlash, reja tuzish, annotatsiya tuzish, kerakli axborotni kutubxona va Internetdan izlab topish, tadqiqotning muammoli vaziyatlari bilan tanishtirish, kartoteka yuritish va boshqa; nazorat qilish va baholashning qoidalari bilan tanishtirish; joriy nazorat qilib borish (saralab tekshirish; baholash; taqrizlash; mustaqil va ijodiy ishdan egallagan ko'nikmasining darajasini ko'rsatish va hokazo).

Mustaqil ishni bajarish uchun quyidagi uslubiy tavsiyalarni keltiramiz: Mustaqil ishni bajarish ishchi o'quv dasturida ko'rsatilgan mavzular taqvimi asosida amalga oshiriladi. Mustaqil ish ma'ruza, amaliyot, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarida hamda darsdan tashqari paytda bajarilishi mumkin.

Fanni o'zlashtirishda talaba quyidagilarga amal qilishi lozim: ko'rsatilgan manbadan nazariy ma'lumotlar e'tibor va sinchkovlik bilan o'qiladi; parallel ravishda shu manbada ko'rsatilgan mavzuga oid kerakli ko'rsatmalar bilan yechilgan, yechish tavsiya qilingan misol va masalalar bilan tanishib chiqiladi, talabaning o'zi ham shularga mos misol va masalalar tuzadi; shu misol va masalalarni talaba mustaqil yechadi (agar bu jarayonda tushunmovchiliklar, noaniqliklar, qiyinchiliklar yoki ba'zi qo'shimcha ma'lumotlar zarurati tug'ilsa, talaba nazariy ma'lumotlarni shu manbadan, ma'rzedan, qo'shimcha manbalardan, Internet ma'lumotlaridan qayta ko'rib chiqadi); mustaqil ravishda gipotezalar o'ylab topiladi, tadqiqotlar tashkil etiladi, o'z ma'lumotlarini qayta ishlab chiqadi, natijalarning interpretatsiyasiga e'tibor qaratadi; kutilgan javob chiqariladi va qo'yilgan savollarga javob topadi.

Adabiyot bilan ishlash usullari: ko'z yugirtirib chiqish (umumiyoq tasavvurga ega bo'lish va matnni ko'zdan kechirish, bunda titul varag'i annotatsiyasi, mundarijasi, ba'zi abzatslar va ilovalar o'qiladi); ba'zi bo'lim, bob yoki mavzular bilan tanishib chiqish (bu usul ba'zi savollarga javoblarni oydinlashtirish, taqqoslash, olingan ma'lumotlarni qiyoslash, savolga nisbatan o'z fikri va xulosasini chiqarish maqsadida ishlatiladi); o'rganish uchun o'qib chiqish (bu faol o'qish usuli bo'lib, topshirilgan materialni sinchiklab o'rganish, matnning mag'zini, maqsadini, mantiqiy tuzilmasini va hokazo tushinish uchun ishlatiladi, bunda o'rganish ketma-ket o'qish bilan amalga oshiriladi) va hokazo;

Bundan tashqari tushunchalarning sxematik tuzilmasini hamda tushuncha va atamalarning lug'atini tuzish, kalit so'zlarga va adabiyotlar manbaiga e'tiborni qaratish foydali.

Talabaning bilim, o'zlashtirish, ko'nikma hosil qilish darajasiga qarab, masalan, informatika fanidan unga namuna sifatida quyidagi ko'rinishdagi mustaqil ishlarni bajarishni berish mumkin:

1) *nusxa olish darajasidagi mustaqil ush* – bu matn (darslik, elektron qo'llanma, Internet-manba, qo'shimcha adabiyotlar va boshqa)ga reja tuzish, ushbu matndan konsept olish; – javoblarga reja va tezis tuzish; – yopiq kalitli test topshiriqlari bajarish; – topshiriqlarni bajarish uchun o'qituvchi bilan ketma-ket sxema va jadvallarni to'ldirib borish; – namunaga qarab masalani yechish; – berilgan algoritm bo'yicha tuzilgan amaliy dasturdan va matematik paketlardan natijalar olish;

2) *tanlash va yaratish darajasidagi mustaqil ish* – bu matnni analitik tahlil qilish (matnga annotatsiya, taqriz, mulohaza, referat yozish); – ochiq kalitli test topshiriqlari bajarish; – seminar va anjumanlarda chiqish uchun ma'ruza tayyorlash; – ortiqcha ma'lumotli masalalarni yechish; – mavzu yuzasidan referat, esse, ma'ruza, krossvord va boshqalarni tayyorlash; – algoritmi berilmagan amaliy dasturdan va matematik paketlardan natijalar olish;

3) *ijodiy darajadagi mustaqil ish* – bu topshiriqlari bajarish va olingan natijalarning qo'llanilish chegaralarini izlash; – topshiriqlari bajarish va olingan natijalarning ishonchilik darajasini aniqlash; evristik suhbatlarda ishtiroy etish; – telekommunikation loyihibalar, olimpiadalar va ishbilarmonlik o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish; – spravochnik va Internet-resurslardan foydalangan holda amaliy dasturlardan va matematik paketlardan foydalananishning yangi yo'llarini o'zlashtirish; – nostandard evristik masalalarni yechish va hokazo.

Masalan, shulardan biri, konsept tayyorlashda reja, ba'zi ko'chirmalar va annotatsiya, mantiqiy izohlar, asosiy tushunchalar va xulosalar, dalillar, isbotlar, o'rganilayotgan materialga talabaning

shaxsiy fikri, bu ishga boshqa shaxslarning ko'rsatgan fikr va mulohazalari va hokazolar kirishi mumkin. Konspekt taylorayotganda ko'psozlilikdan, ortiqcha tsitatalardan, asosiy mazmun va mantiqni yo'qotib qo'yishdan qochish lozim. *Konspektning to'rt turi mavjud*, bular: *rejali* (dastlabki reja asosida yoziladi; har bir bandga konspektning aniq qismlari mos keladi); *matnli* (asosan o'zaro bo'g'langan sitatalar yoziladi); *erkin* (qisqa ko'chirmalar, sitatalar va tezislardan iborat); *tematik* (matnni to'la qoplamaydi, balki uning mazmuni, ma'lum bir mavzulari, aniq savollarga aniq javoblar keltiriladi).

Endi talabaning bitta muammoli masala ustida qanday mustaqil ishlashi mumkinligi uchun misol tariqasida suyuqlik va gaz mexanikasi fanidan quyidagi muammoli vazifalarni namuna sifatida keltirib o'taylik. Gidrostatikaning asosiy qonunlarini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida quyidagi sodda sinovlarni o'tkazing va ularni shu qonunlarga tayanib asoslang hamda tegishli xulosalar chiqaring: 1) Oddiy stakanni suv bilan liq to'ldiring. Stakanni qog'oz bilan yoping, uni kaftingiz bilan ushlang va stakanni to'nkaring, keyin esa qo'lingizni oling. Stakandagi suv uning tubidagi qog'ozga tayansada u to'kilmaydi. Nima uchun? 2) Suv jo'mragini asta sekin yoping va bunda suvning nobarqaror harakati statsionar holatga yaqin bo'lib borishini kuzatasiz. Statsionar harakatning oqim chiziqlarini ko'rish uchun, masalan, quyidagicha sinov o'tkazing: vodoprovod jo'mragi ichiga bir necha dona permanganat kukuni (kaliy margansovkasi) solingen shaffof rezina quvurcha ulang, suvning naychadagi oqimi va uning shisha idishga tushishini kuzating. Statsionar harakatda suyuqlik zarrachalarining biror oqim naychasidan chiqib ketish holati uchraydimi? 3) Suv jo'mragini shunday ochingki, undan oqayotgan suv oqimi statsionar holatga yaqin bo'lsin. Shu oqimning jo'mrak og'zidagi va quyi qismidagi tezliklarini taqqoslang.

Mustaqil ishni nazorat qilish va baholash uchun quyidagi ba'zi uslubiy tavsiyalarni keltiramiz:

Fan bo'yicha mustaqil ish natijalari haqida hisobot tayyorlab boriladi, bunda hisobot og'zaki yoki yozma ma'ruza, konspekt, referat, hisob-grafik ish, kontrol ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi va hokazolar shaklida bo'lishi mumkin.

Talabaning mustaqil ishini baholashdan oldin uning bajargan mustaqil ishining ana shu shakliga qarab u bilan yakka tartibda suhbat o'tkazish juda katta ahamiyat kasb etadi, bunda quyidagilarga jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: adabiyotlarni saralab sharhlay olishi, mustaqil ishiga reja va annotatsiya tuza bilishi, kerakli axborotni kutubxona va Internetdan izlab topa olishi, tadqiqotning muammoli vaziyatlaridan chiqa olishi, mustaqil va ijodiy ishdan egallagan ko'nikmasining darajasini ko'rsata bilishi va hokazo.

Nazorat turlarining barchasida talabaning bilimini baholash to'g'risidagi Nizom asosida uning barcha turdag'i mustaqil ishlari baholab boriladi. Uni baholash mezoni ishchi o'quv dasturda va texnologik xaritada, yuqorida Nizomga tayanib, batafsil bayon qilinadi.

Shunday qilib, pedagogik konsepsiya asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi: har bir dars qiziqarli, jalb qiluvchi va ijodiy bo'lishi lozim; talabaning muvaffaqiyati – bu o'qituvchining quvonchi; bilish ajablanishdan boshlanadi; talabaga darsni shunday tushuntirish kerakki, unga bular avvaldan tanishdek tuyulsin va u buni amaliyatga qo'llay olsin; talabaning mustaqil ishi uning salmoqli ijodiy mahsuloti bo'lsin va hokazo.

Fanni o'zlashtirishning mustaqil ish jarayonida talabaga tug'iladigan qiyinchiliklar va ularni ijobjiy hal qilish yo'llari:boshlahg'ich bilimlarga ega bo'lmaslik, tushuncha va atamalarining ko'pligi; fanni o'rganishda psixologik va pedagogik tushunchalardan foydalana olish; foydalani layotgan asosiy manbalarda kerakli barcha tushuncha va atamalar hamda foydali ishlanmalarning yo'qligi, chunki mavjud pedagogik, psixologik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tadbiqi zamon talabiga javob bermasligi mumkin; fanni mustaqil o'zlashtira olmaslik haqidagi ishonchszilik.

Shunga qaramasdan bunday qiyinchiliklarni yengib borish uchun mayjud uslubiy va matematik asoslardan samarali foydalanish, o'z o'quv faoliyatini tashkil qila bilish lozim. Bunda aniq amaliy topshiriqlarni bajarib borish ana shunday qiyinchiliklarni yengishga zamin yaratadi.

Shunday qilib, kelajakda talabalar oliy ta'lim muassasi yoki akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchisi sifatida qaysi yo'ldan borishi bizga qorong'u, ammo biz shuni bilamizki, ular yangiliklar yaratish, kitoblar yozish, Mustaqil yurtning yoshlariga ta'lim-tarbiya berish, ishlab chiqarish va iqtisodiyotning ilg'orlari qatorida bo'lish uchun hayotga qadam qo'yadi. Biz ishonamizki, ular bu maqsadlariga albatta erishadilar.

Адабиётлар

1. Арзикулов А., Усанов Ш. Мустакил таълимнинг методик таъминоти хакида. Таълим тараккиёти, № 3-4, 2001 й.
2. Бердиева О. Геометрия таълимида укувчиларнинг мустакил ишлаш кунига ва малакаларини шакллантириш методикаси. ТДГУ, Т. 2007 й.
3. Арзикулов А. Талабаларнинг мустакил ишларини ташкил этиш ва баҳолашнинг баъзи усуллари хакида. Андижон давлат университетнинг 75 йилигига багишлаб утказилган «Узлуксиз таълим тизимида математика фанини уқитишини такомиллаштириш масалалари» Республика илмий анжумани материаллари, 28-29 апрель 2006 й. Андижон, 12- 13 бетлар.
4. Арзикулов А. Математик анализ фани буйиича мустакил таълим ва уни баҳолаш хакида. Национальная программа по подготовка кадров; результаты и перспективы реформ. Тошкент, 2000, 5-6 декабрь.

UDK: 517.3:371 (575.1)**TALABA VA O'QUVCHILARNING MATEMATIK QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH USULLARI HAQIDA**

N. Sh. Ibragimov
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Maqola o'quvchilarning matematik xotira va diqqatini rivojlantirishga doir masalalarini tanlash metodikasiga bag'ishlangan, misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: matematik qobiliyat, rivojlantirish, komponent, matematik xotira, diqqat, fikrlash, xulosa, g'oya, tasavvur.

О способах развития математических способностей студентов и учеников

Аннотация. Статья посвящена методику подборка примеров, которые помогает развитие математические памяти и внимание учащихся. Приведены примеры.

Ключевые слова: математических способностей, развития, компоненты, математическая память, внимание, мышление, взгляды, идеи, воображение.

About methods developing math skills of students and pupils

Abstract. The article gives methodology of selection of examples that memory helps to fix and to develop mathematical skills of students.

Keywords: mathematical capabilities, development, component, mathematical memory, attention, thinking, looks, ideas, imagination.

Bugungi kunda matematikani o'qitish jarayonini samarali amalga oshirish va o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish eng dolzarb muammolardan biri ekanligi barchaga ma'lum. Shuning uchun ham talaba va o'quvchilarning qobiliyatlarini shu jumladan, matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan va turli usullar taklif qilingan. Aytish joizki aynan matematik qibiliyatlarini rivojlantirish usullari yoritilgan ilmiy izlanishlarni hoyatda kam. Bizning bu boradagi izlanishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki taklif qilingan usullar ichida eng samaralisi matematik qobiliyatni aniqlovchi komponentlarni o'rganish va ularni rivojlantiruvchi masalalarini tuzishdir [4;5;6;8].

Bunday taklif birinchilardan bo'lib V.A. Krutetskiyning izlanishlaridan berilgan. Masalan uning [6] kitobida turli o'quvchilarning matematik qobiliyat komponentlari ilmiy jihatdan o'rganilib 9 ta turdag'i matematik qobiliyat komponentlariga jamlangan. Jumladan u, bu kitobda o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini eksperimental o'rganish davomida matematik qobiliyat tuzilishini o'rganishga, ularning aqliy faoliyatni xususiyatlarini tushunishga muvaffaq bo'ldi.

I.Ya. Kaplunovich [5] esa, o'zining ishlarida o'quvchilarning matematik qibiliyatlarini komponentlarini namoyon qilish imkonini beruvchi masalalarini tadqiq qilgan. U masalalar yechish jarayonida fazoviy fikrlash strukturasini rivojlantirish, matematik fikrlashning hukumron tuzilishini aniqlash usullarini o'rgangan.

T.U. O'tapov [8] tadqiqotida 9 sinf o'quvchilari uchun 12 ta turdag'i matematik qobiliyat komponentlarini taklif etgan va ularni namoyon etuvchi test topshirilarni tuzgan. Lekin yuqoridagi tadqiqotlarda taklif qilingan komponentlarni namoyon qiluvchi masala (test)lar tuzishda nimalarga e'tibor berilishi yetarli darajada bayon qilinmagan. Ularning ayrimlari intuitiv tarzda tanlangan deyish mumkin. [6] va [8] dagi masala (test)lar o'z nomi bilan matematik qobiliyatli o'quvchilarni tanlab olishdagina ishlatilishi mumkin. Tanlab olingan o'quvchilar matematik qobiliyatlarini tizimli rivojlantirishga mo'ljallangan masalalar to'plamlari yo'q. Demak ularni tuzish usullari ham yo'q.

Biz ushbu maqlolada aniqlab olingan matematik qobiliyat komponentlaridan matematik xotira va diqqatni o'quv jarayonida rivojlantirish imkonini beruvchi 8, 9-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan manbalardan masalalar tuzish usullariga to'xtalamiz.

I. Matematik xotira - bu o'quv materialini eslab qolish o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ma'lumki, xotira jarayoni 3 xil ko'rinishda amalga oshadi: xotirada saklash, ixtiyorsiz eslab qolish ba ixtiyoriy eslab qolish. Eslab qolishni amalga oshirish uchun o'quvchilarning sezgi va idrokini faollashtirish zarur. Xotira jarayonida sezgining pertseptiv organlari qancha ko'p ishtirok etsa, eslab qolish shuncha boy va mustaxkam bo'ladi. Bu tasvirlanayotgan yoki namoyish qilinayotgan materialni to'lakonli eslab qolish imkonini beradi.

Xotirada saqlash-bu materialni bir marta taqdim etish natijasida xotirada qisqa muddatli yoki uzoq muddatli mustaxkam va aniq saqlashdir. Qisqa muddatli xotirada saqlash didaktik nuqtai nazardan qaraganda samarasiz hisoblanadi, chunki materialning asosiy qismi tez orada esdan chiqib ketadi. Uzoq muddatli xotirada saqlash, biz kuchli hayajonli taassurot qoldiradigan voqealar bilan to'qnashganimizda yuzaga keladi. Shundan keyin ma'lumotlarni qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga uzatish keladi. Buning uchun materialni taxlil qilish, tushunchalar va xodisalar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash imkonini beruvchi fikrlash va tasavvurni ishga solish, mantiqiy tuzilish va eslab qolinayotgan asosiy joylarini bir necha bor qayta takrorlash va idrok qilish zarur [8]. Bundan tashqari o'quvchinig matematik fikrlash va xulosalash, aniq g'oya va hayoliy tasavvuri, esda saqlagan taassuroti matematik xotirani rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa quyidagi xotira turlari matematika fani bilan inson ongida faollashadi.

Mantiq xotirasi-ma'lum g'oyalar, fikrlar hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni esda qoldirish, mustahkamlash va zarur paytlarda esga tushirishdan iborat bo'lgan xotira turi. Masalan, falsafiy mushohadalar, qonuniyatlar va shu kabilarni esda qoldirish, mustahkamlash va qayta tiklash jarayonlaridir. So'zlar ya`ni verbal orqali ifodalangan fikrlar so'z mantiq xotirasi yordamida esda olib qolinadi.

Fenomenal (gr.phainomenal-noyob) xotira-idrok qilingan narsa va hodisalarni, ularning bog'lanish muiosabatlarini favqulodda tez hamda aniq esda qoldirish va esga tushirishga qaratilgan nodir qobiliyat.

Esda qoldirish-idrok qilingan materiallarni, narsa va hodisalarni ongimizda qoldirishdan iborat xotira jarayoni.

Ixtiyoriy esda qoldirish-idrok materialini maqsadga muvofiq, uning muhimligini anglangan holda, irodaviy va asabiy kuch sarflab esda qoldirishdai iborat xotira jarayoni.

Tezkor (operativ. lat. operativ-tezkor) xotira inson tomonidan bevosita amalga oshiriladigan ko'z harakatlari, aqliy harakatlarni uchun xizmat qiluvchi xotira jarayonidan iboratdir. Masalan, matematik amalni bajarishga kirishar ekanmiz, biz uni bo'laklarga ajratib bajarishga kirishamiz; oraliq natijalarini esimizda saqlab turamiz, faoliyatimiz nihoyasiga yaqinlashgan sari ayrim materiallarni esdan chiqa boshlaydi. Bunday holatni matnni o'qishda, uni ko'chirib yozishda, murakkabroq aqliy mehnatni amalga oshirishda kuzatish mumkin.

Matematik xotirani rivojlantirishda ushbu ko'rinishdagi masalalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir: a) matematik fikrlash va xulosalashga oid masalalar; b) aniq g'oya va hayoliy tasavvurni uyg'otadigan masalalar; v) esda saqlash taassurotini oshiruvchi masalalardan iborat [5;7].

a) bandga doir 1-masala.

$$\text{b)} \quad \text{Agar } x + y + z = 1 \text{ va } \frac{1}{x} + \frac{1}{y} + \frac{1}{z} = 0 \text{ bo'lsa, } x^2 + y^2 + z^2 \text{ ni toping.}$$

Yechish. Bu masalani yechishda o'quvchi quyidagicha fikr yuritadi. Bunda birinchi tenglikning ikkala tamonini kvadratga ko'tarishda izlanayotgan $x^2 + y^2 + z^2$ ifoda bilan birga hosil

bo‘ladigan ikkilangan $2xy + 2yz + 2zx$ noma'lum ifoda o‘rniga nimani qo‘yish haqida xulosaga keladi. Bu esa o‘quvchining **mantiqiy xotirasini** ishga tushishiga olib keladi. Shu maqsadda **mantiqiy xotirasidan** foydalanib ikkinchi ifodani umumiy maxrajga keltirib ko‘radi va kasr suratidagi ifoda birinchi ifodaning no‘malum qismi bilan bir xil ekanligi va uni o‘rniga qo‘yish imkonli borligi haqida xulosaga keladi. Haqiqatdan o‘quvchi so‘ralgan yig‘indini topishda birinchi berilgan tenglamaning ikkala tamonini kvatratga ko‘tarish fikrni hayolidan o‘tkazadi. Shunda masalani yechimini

$$\frac{1}{x} + \frac{1}{y} + \frac{1}{z} = 0$$

tenglik orqali topish haqida aniq xulosaga keladi. Bunda tenglikdan

$$\frac{1}{x} + \frac{1}{y} + \frac{1}{z} = \frac{xy + yz + zx}{xyz} = 0$$

tenglik kelib $xy + yz + zx = 0$ chiqadi. Endi xulosadan foydalanib

$$x + y + z = 1$$

tenglikni ikkala tamonini kvadratga ko‘tarib, quydagi

$$x^2 + y^2 + z^2 + 2(xy + yz + zx) = x^2 + y^2 + z^2 = 1$$

tenglikni keltirib chiqaradi.

b) bandga doir 1-masala. Yozilish tartibida arifmetik progressiyani tashkil qiluvchi va $xy = \sqrt{ztuv}$ shartni qanotlantiruvchi ikki xonali $\overline{xy}, \overline{zt}, \overline{uv}$ sonlarni toping.

Yechish. Ushbu misol nisbatan mantiqiyidik ko‘rinsada uni yechish o‘quvchidan aniq g‘oya talab qilinadi. Bu g‘oyani aniqlash uchun o‘quvchining **tezkor xotirasi** ishga tushadi. **Tezkor xotirasi** orqali oldin $xy = a, zt = b, uv = c$ ushbu ko‘rinishdagi belgilashni kiritib olish g‘oyasi paydo bo‘ladi, o‘quvchi masala shartiga ko‘ra $\overline{xy}, \overline{zt}, \overline{uv}$ sonlar ikki xonali son ekanligi va ular arifmetik progressiyani tashkil etishini hayolan tasavvur qilib, bu ildiz ostidan ifoda to‘rt xonali son ekanligidan quyidagi ishni amalga oshiradi. $\overline{ztuv} = \overline{zt} + \overline{uv}$ ni $a = \sqrt{\overline{zt} + \overline{uv}}$ yozishi mumkin va $a^2 = 100b + c$

bunda arifmetik progressiyaning birinchi va uchunchi hadlarining yarmi ikkinchi hadini hosil qilishidan $2b = a + c, b = \frac{a + c}{2}$ ni hayolan tasavvur qiladi. Bu yerda a ni

$$a^2 = 50a + 51c, a(a - 50) = 51c$$

bo‘lgani uchun $a(a - 50)$ soni musbat va 51 ga bo‘linadi, bo‘linmada esa ikki xonali son hosil bo‘ladi. Bulardan, a soni $51 + 17 = 68$ yoki 84, c ning unga mos qiymatlari 24 va 56, bunda b ning qiymati 46 va 70 bo‘lishi mumkinligi kelib chiqadi, demak $(68;46;24) (84;70;56)$. Bu o‘quvchida matematik xotirani kuchayishiga xizmat qiladi.

v) bandga doir 1-masala. Tenglamalar sistemasini yeching,

$$\begin{cases} x - \sqrt{y} = 1, \\ y - \sqrt{z} = 1, \\ z - \sqrt{x} = 1. \end{cases}$$

Yechish. Tenglamalar sistemasida ildiz qatnashganligi uchun lar musbat ekanligini eslab qolishi zarur bo‘ladi. Bunda esa o‘quvchi ma'lumotni **ixtiyoriy esda qoldirish** xotirasini ishlatadi. Shu shartlarni hisobga olib faraz qilaylik. x ularning eng kattasi bo‘lsin: $x \geq y, x \geq z, y = (x-1)^2, x = (z-1)^2$ va $z = (y-1)^2$ bo‘lgani uchun $x \geq y$ dan $(z-1)^2 \geq (x-1)^2$ ekanligi kelib chiqadi. Bundan $z \geq x$, ammo shartga ko‘ra $x \geq z$ edi. Demak esda saqlangan ma'lumotlardan, $x = z$ ekan. Xuddi shunday $x = y$ bo‘lishini ko‘rsatish mumkin. Shunda $x = y = z$ ekan, haqiqatdan ham yuqorida tongsizlik tasdiqlandi. Bundan foydalanib tenglamalar sistemasini yechsak, javob: $x = y = z = \frac{3 + \sqrt{5}}{2}$ bo‘ladi.

2-masala. O‘tgan kuni men 14 yoshga to‘lgan edim, kelgusi yili esa 17 yoshga qarab ketaman, dedi Sherzod. Suhbat qachon bo‘lgan?

Yechish. Ushbu masala o‘quvchining eslash qobiliyatini o‘yg‘otishga undaydi. Bunda o‘quvchi masalada ma'lum qilingan ma'lumotlarni xotirasida qayta ishlab **esda qoldirish** qobiliyatini ishga soladi. O‘quvchi Sherzodning tug‘ilgan yili qachon ekanligini aniqlash kerak 14 yosh bilan 17 yosh o‘rtasida 3 yosh farq bor bu esa, yechim izlashda eslash taassurotiga yo‘naltiradi. Bu suhbatni


o'quvchi quyidagicha topadi. Suhbat 2017 yil 1 yanvarda bo'lib o'tgan. Sherzod 14 yoshga 2016 yil dekabrda to'lgan. Shuning uchun ham 2018 yil 31 dekabrda o'n yettiga qarab ketadi. Demak bu turdagi masalalar o'quvchilarning eslash qobiliyatini ochib beradi va shunda o'quvchining xotirasi rivojlanadi.

8-sinf "Algebra" (mualliflar SH.A. Alimov, O.R. Xolmuhammedov, M.A. Mirzahmedov) darsligining [1] II-bobida chiziqli tenglamalar sistemasi mavzusidagi 70, 71-masalalari, chasalalarni tenglamalar sistemasi yordamida yechish mavzusidagi 97, 98, 101-masalalar, "Geometriya" (muallif A.A. Rahimqoriev) darsligining [9] qavariq ko'pburchak ichki va tashqi burchaklarining yig'indisi mavzusidagi 20, 22-masalalar, trapetsiya mavzusidagi 29, 31-masalalar. 9-sinf "Algebra" (mualliflar SH.A. Alimov, O.R. Xolmuhammedov, M.A. Mirzahmedov) darsligining [2] I-bobida $y = ax^2 + bx + c$ funktsiya mavzusidagi 27, 28-masalalar, II-bobida kvadrat tengsizlikni kvadrat funktsiya grafigi yordamida yechish mavzusidagi 81, 82-masalalar, "Geometriya" (mualliflar B. Haydarov, E. Sariqov, A. Qo'chqorov) darsligining [10] II-bobida o'tkir burchakning sinusi, kosinusi, tangensi va kotangensi mavzusidagi 6, 7-masalalar, uchburchak yuzini burchak sinusi yordamida hisoblash mavzusidagi 7, 8-masalalar. Qo'shimcha adabiyotdan "O'quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlash" (mualliflar M.A. Mirzaahmedov, D. Sotiboldiev) ko'llanmasidagi [7] 90, 130, 168, 690, 909 –masalalar **xotirani rivojlantiruvchi** yuqoridagidek ko'rinishdagi masalalardir.

II. Diqqat - bu diqqat-ongning biron-bir buyum yoki xodisaga yunaltirilganligidir. Har qanday faoliyat insondan berilib ishslash talab qiladi. O'quvchi matematik masalani yechayotganda, geometrik figurani o'rganayotganda, komp'yuterda ishlayotganda barchasida diqqat ishtirot etadi. O'quvchilar diqqat tufayligina o'qituvchini tinglay oladilar, uning tushuntirishlarini idrok qila oladilar. O'quvchi xar bir ishni oxiriga yetkazish uchun idroq xotira, fikrlash kabi psixik jarayonlarni ishga tushiradi. Diqqat kishining holati, oldiga kuygan maqsadi va vazifalariga, muayyan ishni bajarishga, tashki sharoitga, diqqatning yaxshi o'tish-o'tmasligiga imkon beradigan sharoitning mavjudligi yoki mavjud emasligiga bog'lik, bo'ladi. Bundan tashqari o'quvchining aniqlikga intilishi, sinchkovligi, fikran yod olib umumiylondagi geometrik elementlarni va shakllarni ajratishi, uzluksiz e'tibori matematik nuqtai nazardan diqqatini rivojlantiradi.

Diqqatni rivojlantirishda ushbu ko'rinishdagi masalalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir: a) matematik aniqlik va sinchkovlikni o'yg'atuvchi masalalar; b) fikran yod olib umumiylondagi geometrik elementlarni va shakllarni ajratishga doir masalalalar; v) uzluksiz e'tiborni jalb etuvchi masalalar kiradi[5;7].

a) bandga doir masala. ABCD kvadratda E nuqta BS tomonning, F nuqta esa CD tomonning o'rtasi. EAF burchakning tangensini toping.



Yechish. Bu masalani yechishda o'quvchi EAF burchakning tangensini topish uchun **diqqat** bilan masala ustida mulohaza yuritadi. EAF burchakni topish uchun AF va AE tamonlarini, ECF uchburchakdan EF ni, $\angle EAF$ dan α burchakni va bu orqali burchak tangensini aniqlash mumkinligini topadi. Demak bu izlanish matematik **aniqlik** va **sinchkovlikni** taqzoa etib o'quvchining **diqqatini** yanada rivojlantiradi. Kvadratning tamoni a desak $AF = AE = \frac{\sqrt{5}a}{2}$, ECF


uchburchakdan $EF = \frac{a\sqrt{2}}{2}$, $\angle EAF$ dan α burchakni kosinuslar teoremasidan foydalanib

$\cos \alpha = \frac{4}{5}$ va burchak tangensi $1 + \operatorname{tg}^2 \alpha = \frac{1}{\cos^2 \alpha}$ formulasidan $\operatorname{tg} \alpha = \frac{3}{4}$ ni topadi.

b) bandga doir masala. Rasmda bo'yagan sohalarning yuzlarini taqqoslang.

Yechish. Bu masalani rasmga **diqqat** bilan qarab uning ichidagi shakllarni ajratib fikran tasavvur etishga harakat qilinadi. Savol shundan iboratki ikkita kvadratning bo'yagan yuzalarini bir-biridan farqlash o'quvchi bo'yagan qism kvadratlarining tomonlarini topishda ularning o'zaro ichki shakllarini ajratish **diqqatini** tortadi. Birinchi kvadratning ichki qismidagi kvadratlarning tamonini x va y bilan belgilaymiz. Ikkinci kvadrat tamonini ham huddi shunday belgilaymiz. Yuzlarini hisoblaydigan bo'lsak, birinchi bo'yagan kvadratlarning yuzi $S_1 = x^2 + y^2$, ikkinchi bo'yagan kvadratning tamoni $\sqrt{x^2 + y^2}$ ga teng, yuzi esa $S_2 = (\sqrt{x^2 + y^2})^2 = x^2 + y^2$. Demak kvadratlarning bo'yagan qismlari teng ekan. O'quvchi bu masalani yechishda fikran xulosalab **umumiylondagi geometrik shakllarni ajrata oldi**, bu esa o'quvchining **diqqatini** rivojlantirishga yordam beradi.

v) bandga doir 1-masala. ABCD parallelogramm tomonlariga parallel ikki juft to'g'ri chiziqlar bilan to'qqizta parallelogrammga ajratilgan. Agar S berilgan parallelogrammning yuzi Q markaziy figura (shtrixlangan $A'B'C'D'$) ning yuzi bo'lsa, MNKL to'rt burchakning yuzini toping.



Yechish. O'quvchi MNKL to'rtburchakning yuzini topish uchun parallelogramm chizmalari **diqqatini** jalb etadi. Chizmaga **uzlucksiz e'tiborni qaratib** quyidagilarni topamiz. MNKL to'rtburchak $AMD'L$, $A'MBN$, $B'NCK$, $C'KDL$ parallelogrammlarning yarimlari va $A'B'C'D'$ parallelogramm yuzlarining yig'indisiga teng. Shuning uchun: $S_{MNKL} = Q + \frac{S - Q}{2} = \frac{S + Q}{2}$

8-sinf "Algebra" (mualliflar SH.A. Alimov, O.R. Xolmuhammedov, M.A. Mirzahmedov) darsligining [1] III-bobida tengsizliklar sistemasini yechish mavzusidagi 198, 202, 203-masalalar, "Geometriya" (muallif A. Rahimqoriev) darsligining [9] ko'pburchaklar mavzusidagi 5, 6, 7-masalalar, Fales teoremasi mavzusidagi 114, 120-masalalar. 9-sinf "Algebra" (mualliflar SH.A. Alimov, O.R. Xolmuhammedov, M.A. Mirzahmedov) darsligining [2] II-bobida kvadrat tengsizlikni kvadrat funktsiya grafigi yordamida yechish mavzusidagi 80, 81, 82-masalalar, II-bobida butun ko'rsatkichli daraja mavzusidagi 129, 130 -masalalar, "Geometriya" (mualliflar B. Haydarov, E. Sariqov, A. Qo'chqorov) darsligining [10] II-bobida uchburchaklarni yechishning amaliyotda qo'llanishi

mavzusidagi 4, 5, 6-masalalar. Qo'shimcha adabiyotdan "O'quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlash" (mualliflar M.A. Mirzaahmedov, D. Sotiboldiev) ko'llanmasidagi [7] 92, 196, 210, 922, 950-masalalar **diqqatni rivojlantiruvchi** yuqorida gidek ko'rinishdagi masalalardir.

Matematikani o'qitishda o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun matematik xotira va diqqatini rivojlantirish masalalari muhimdir. Albatta matematik xotira va diqqatni bir biridan ajratib o'rganishni imkoniy yo'q. Chunki xotirani rivojlantirishga mo'ljalangan masalalar bir vaqtida diqqatni ham rivojlantiradi va aksincha. Biz bu yerda qaysi biri ustunligiga qarab masalalarni tanladik. O'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishda komponentlarga maxsus masalalarni tanlash va ularni yechishda qaysi qobiliyat turlari namoyon bo'lishi masalasi ko'rib chiqildi.

Adabiyotlar

1. Alimov Sh.A., Xolmuhammedov O.R., Mirzahmedov M.A. Algebra 8-sinf. –Toshkent: O'qituvchi, 2010.-222 b.

2. Alimov Sh.A., Xolmuhamedov O.R., Mirzahmedov M.A. Algebra 9-sinf. –Toshkent: O'qituvchi, 2010.-238 b.
3. Alihanov S. Matematika o'qitish metodikasi.-Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.-302 b.
4. Ибрагимов Н.Ш. Математические способности и их развитие в академических лицеях //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. Научно-методический журнал. –Москва, 2015. – № 8. – С. 92.
5. Каплунович И. Я., Верзилова Н. И. Учет индивидуальных особенностей мышления при обучении учащихся решению математических задач. Психологическая наука и образование,2003, № 4. - С.74.
6. Крутецкий В.А. Психология математических способностей школьников. Москва: Просвещение, 1998. – С. 410.
7. Mirzaahmedov M.A., Sotiboldiev D. O'quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlash. - Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 420 b.
8. O'tapov T.U. Matemaktik iqtidorli o'quvchilarni aniqlovchi test topshiriqlarni tuzish va natijalarini qayta ishslash metodikasi. Uslubiy qo'llanma. -Toshkent: Fan, 2007. – B. 98.
9. Rahimqoriyev A.A. Geometriya 8-sinf –Toshkent: Yangiyo'l polygraph service, 2010. –160 b.
10. Haydarov B., Sariqov E., Qo'chqorov A. Geometriya 9-sinf –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. –158 b.

UDK 377.514

**IXTISOSLASHGAN O'QUV-ISHLAB CHIQARISH MAJMULARIDA
GEOMETRIYALARING ROLI**
R.M Ibadov¹. X.N. Umarova²

¹*Samarqand davlat universiteti*, ²*Nurobod tumani sanoat kasb-hunar kolleji*

E-mail: ibrustam@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada uzlusiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lgan kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualari o'quvchilari uchun fanlar yutuqlaridan ma'lumotlarga ega bo'lishlari foydali bo'lishi keltirilgan. Jumladan, xozirgi zamon geometriyalari rollari bilan o'quvchini chuqurlashtirilmagan holda tanishtirish maqsadli ekanligig'oyasi ilgari surilgan

Kalit so'zlar: Kasbiy ta'lim, ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualari, Yevklid geometriyasi, Noyevklid geometriyalar, Finsler geometriyasi, Fraktallar geometriyasi, Mandelbrot ketma-ketligi.

Роль геометрии в специализированных учебно-производственных комплексах

Аннотация. В статье описываются преимущества овладения достижениями науки для учащихся специализированных учебных и производственных комплексов, входящих в систему непрерывного образования. В частности, выдвинуть идею целесообразности неуглубленного ознакомления студентов с современными геометриями.

Ключевые слова: Профессиональное образование, специализированные учебно-производственные комплексы, геометрия Евклида, Неевклидовы геометрии, геометрия Финслера, Фрактальная геометрия, последовательность Мандельброта.

The role of geometry in specialized educational and production complexes

Abstract. The article describes the advantages of mastering the achievements of science for students of specialized educational and production complexes which are the part of the system of continuous education. In particular, it is to put forward the idea of expediency of not in-depth familiarization of students with modern geometries.


Keywords: Professional education, specialized educational and production complexes, Euclidean geometry, non-Euclidean geometry, Finsler geometry, Fractal geometry, Mandelbrot sequence.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o'rta ta'lif muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lif berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 24 oktabrdagi 868-sonli qarori asosan o'quvchilarga kasbiy ta'lif berish uzlusiz ta'lif tizimining tarkibiy qismi ekanligi, ularning kasb-hunar o'rganishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, respublika iqtisodiyoti tarmoqlari uchun zarur mutaxassislarini tayyorlashga yo'naltirilgan. Mutaxassislarimiz esa, o'z navbatida, jahon andazolariga mos va ulardan ham yuqori darajadagi ishlab-chiqarish maxsulotlari yaratish Vatanimizning jahon bozorida mavqiyasini oshiradi. Bu maqsadga erishishda o'quv-ishlab chiqarish majmualari o'quvchilari uchun fanlar yutuqlaridan ma'lum darajada ma'lumotlarga ega bo'lishlari foydali bo'ladi. Jumladan o'quv-ishlab chiqarish majmualarining «Zardo'zlik», «Gilam to'qish», «Kashtachilik», «Duradgorlik», «Yog'och o'ymakorligi», «Mebel yasash», «Naqqoshlik, rassom», «Kulolchilik», «Quruvchilik», «Tikuvchilik», «Bichuvchilik», va boshqa yo'nalishlari bo'yicha kasbiy bilimlarni egalashda geometriyalar bilan o'quvchini chuqurlashtirilmagan holda tanishtirish yo'qoridagi maqsadga erishish uchun omil bo'ladi. Chunki, ushbu jarayonlarda geometrik obyektlar bilan ishlanadi. Hattoki, oddiy ayniqsa «Tikuvchilik» va «Bichuvchilik» yo'nalishlari jarayonida, biz hayyoliy ravishda, matodan nima tikishimiz va natijada bu tikilgan buyim qancha vaqtga xizmat qilishini miyamizdan o'tkazib, biz geometriyalardan foydalanayotganligimizni sezib-sezmay ish yuritamiz [1]. Ayniqsa, loyihalash murakkab ijodiy jarayon va unda har qanday buyumning eng avval geometrik o'lchamlarini bilishimiz lozim [2]. Masalan, inson uchun mo'ljallangan buyum oddiy hisoblansa ham tikilishidan avval boshlang'ich shartlar bo'lgan insonning uch o'lchamlarini va yoshini bilishimz zarur bo'ladi. Bunda, biz to'rt o'lchamli fazo va vaqtidan foydalanayotganimiz, 3 ta o'lchami fazo va to'rtinchchi o'lchami esa vaqt ekanligini aniqlashimiz lozim. Tikilayotgan buyimlarning katta-kichikligi, simmetriyasi va geometrik shaklariga ham ehtibor qaratishimizga to'g'ri keladi. Biz o'lkan dirjablar, havo sharlari, yoki katta chodirlarni tikish jarayonlarida inson uchun tikilayotgan bo'yimlardan farqli ravishda boshqa qushimcha boshlang'ich shartlarga riyoo etgan tarzda geometriyalardan foydalanishimiz lozim bo'ladi.

Tikuv matoning geometrik xarakteristikalariga e'tibor berishimiz lozim. Bunga matoning eni, qalinliga va uzunligi kiradi. Geometrik xarakteristikasi o'z navbatida tikuv jarayonining barcha etaplarida katta rol uynaydi. Matoning qalinligi va sirt zichligini model va konstruksiya tuzishda hisobga olinadi. Aylana, yarim oy, kvadrat va boshqa har xil ornamentlar tekstilda qadimiy davrlardan qo'llanilib kelganligi e'tiborga olib tekstil madaniyatida ornament kompleksining geometrik elementlari asosini bilishimiz lozim bo'ladi. Yuqoridagi misollar to'qimachilik, tikuv buyumlarini loyihalash, dizayin jarayonlarida geometriyalarga katta e'tiborimizni qaratish lozimligini bildiradi.

Hozirgi kunda dunyoning eng qadimiy geometriyasi «Yevklid geometriyasi» hisoblanib, eramizdan 300 yillar oldin Yevklid (eradan oldin 325 -265 y.) tomonidan yaratilgan. Yevklid geometriyasi elementar geometriyaham deb nomlanib asosini beshta postulat tashkil qiladi:


- 1) Ixtiyoriy ikki nuqta orasidan to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin;
- 2) To'g'ri chiziqni istagancha davom ettirish mumkin;
- 3) Ixtiyoriy markazdan turli radiusli aylana chizish mumkin;
- 4) Hamma to'g'ri burchaklar tengdir;
- 5) Parallel chiziqlar istalgancha davom ettirilsa ham ular o'zaro bir-biri bilan kesishmaydi.




Rasm 1.Yevklid geometriyasi bo'yicha uch burchakning ichki burchaklar yig'indisi 180^0 gradusga teng va egrilik radiusi nol.

Yevklid aksiomalar sistemasining analizi XIX asrning ikkinchi yarimlariga kelib uning to'liq emasligi namoyon bo'ldi. Yevklid geometriyasi bo'yicha uch burchakning (Rasm 1.) ichki burchaklar yig'indisi 180^0 gradusga teng va egrilik radiusi nol. Yevklidning 5-postulati qolgan 4 ta postulatlar asosida isbotlanishi mumkin bo'lgan teorema deb hisoblanib kelingan edi. Lekin, N.I. Lobachevskiy 5-postulat

haqiqatdan ham postulat ekanligini isbot etdi. Bu natijaga K.Gauss va Y.Boyyailar ham erishdilar. Bu esa xozirgi vaqtida manfiy egrilikka ega bo'lgan 2-o'lchamli fazo deb ataladi. Demak, yevklid geometriyasidan farqli bo'lgan *Noyevklid geometriyalar* mavjud ekanligi ma'lum bo'ldi. «noyevklid geometriya» termini faqat ikkita: Lobachevskiy va sferik geometriyaga qo'llaniladi. «Noyevklid geometriya»ci xam Yevklid geometriyasi kabi egrilik radiusi o'zgarmas bo'lgan fazo metrik geometriyasidir. Egrilik radiusi nol bo'lsa – Yevklid geometriyasi, musbat bo'lsa-sferik, manfiy bo'lsa Lobachevskiy geometriyasiga mos keladi. Labachevskiy geometriyasi bo'yicha uch burchakning (Rasm 2.) ichki burchaklar yig'indisi 180^0 gradusdan kichik, egrilik radiusi esa manfiy. Lobachevskiy geometriyasi - bu noyevklid geometriyasining biri bo'lib, Yevklid geometriyasidan faqat parallellar aksiomasi bilan farq qiladi vagiperbolik geometriya ham deb nomlanadi.

**Rasm 2.**

Lobachevskiy geometriyasi bo'yicha uchburchakning ichki burchaklar yig'indisi 180^0 gradusdan kichik, egrilik radiusi esa manfiy.

**Rasm 3.**

Riman geometriyasi bo'yicha uchburchakning ichki burchaklar yig'indisi 180^0 gradusdan katta, egrilik radiusi esa musbat.

Noyevklid geometriyasini yaratilishida B. Rimanning xizmatlari katta bo'ldi. *Riman geometriyasi* differensial geometriyaning bo'limi bo'lib, nemis matematigi Rimanning ilmiy izlanishlaridan boshlanadi.

Riman geometriyasining analitik apparatini esa tenzor hisoblashlarni qo'llab italiyalik geometr Richchi-Kurbasto va uning o'quvchisi Levi-Chivita yaratishdilar. Riman geometriyasida nuqtalar orasidagi masofa yevklid geometriyasidagi va Lobachevskiy geometriyasidagi qaraganda boshqacha ifodalanadi. Rimanning tekislik uchun munosabatlari sfera geometriyasiga mos keladi. Sfera sirtida biz to'g'ri burchakli dekart koordinatalaridan emas, balki o'zaro kesishadigan meridianlar va parallellar sistemasiidan, ya'ni egri chiziqli koordinatalardan foydalanamiz. Riman nazariyasiga ko'ra to'g'ri chiziqdagi joylashmagan nuqtadan shu to'g'ri chiziqni kesib o'tmaydigan boshqa to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin emas, ya'ni ikkita ixtiyoriy parallel «to'g'ri chiziq» davom ettirilganda albatta bir-birini kesishadi. Bunday geometriyada uch burchakning ichki burchaklar (Rasm 3.) yig'indisi 180^0 gradusdan katta, egrilik radiusi esa musbat.

Lobachevskiy, Bolyai va Riman geometriyasi falsafiy va hayotiy tushunchalarga zid bo'lganligi uchun uzoq vaqt largacha kulgilarga sabab bo'lib yurdi. Biroq, XIX asrning 60-yillardidan boshlab o'zgarish yuz berdi. Eski ma'lumotlarga qiziqish paydo bo'ldi, noyevklid geometriya apparatidan foydalangan yangi nazariyalar yaratildi. Riman geometriyasini fizikaga tadbiqi esa umumiylis nisbiylik nazariyasini yaratilishida hal qiluvchi omil bo'ldi. Bu esa o'z navbatida riman geometriyasi juda tez rivojlanishiga olib keldi. A.Eynshteyn gravitatsion o'zarota'sirni fazoning geometrik hususiyati bilan bog'liqligini e'tiborga olgan holda oldin maxsus, so'ngra umumiylis nisbiylik nazariyasini yaratdi. Albatta, Riman geometrisidano'z tenzor o'lchami bo'yicha murakkab bo'lgan *Finsler geometriyasi* ham mavjud. Hattoki, buyuk nazariyachi A.Eynshteyn ham matematikaning bunday murakkabligini e'tiborga olib uni chetlab o'tgan.

O'zining beqiyos go'zal formalari bilan namoyon bo'lgan *Fraktallar geometriyasidan* [3,4] yengil sanoatda maxsulotlarga dizayn berishda, qurilish materiallarini yaratilishida qo'llash taklifini [1] kiritgan edik. Bizni urab turuvchi Olam fraktal formaga (Rasm 4.) ega ekanligi hozirgi zamон

olimlarining markaziy e'tiborida. Shu joyda, Bertrand Rasselning «*Matematikaga diqqat bilanyondoshsak, faqat haqiqatni emas, balki mislsiz go'zallikning ham akslanganligini ko'ramiz*» degan so'zlaridan matematikada insoniyat uchun juda ko'p foydali jarayonlar yashiringanligiga ishonchimiz komil bo'ladi. Albatta, bu jarayonlardan qo'rmasdan xalq xo'jaligini turli tarmoqlarida, jumladan yengil sanoatda, to'qimachilik, dizayin jarayonlarida keng qullansa bo'ladi. Bunda biz sezishimiz va ko'rishimiz uchun esa, matematikani musiqa va poeziya kabi estetik rohatlanish obyekti qatorida tasavvur etishimiz lozim. Keyingi yillarda matematika fanining fraktal geometriyasiga ta'luqli bo'limlari juda qiziqarli ekanligi va ularni fan va texnika sohasida qo'llash imkoniyatlari mumkinligi bilinmoqda. Misol tariqasida, oddiy kompleks sonlar $c = a + i \cdot b$, bunda $i = \sqrt{-1}$, yordamida yozilgan Mandelbrot[1,3,4] ketma-ketligini yozib,

$$\begin{aligned} z_0 &= 0 \\ z_1 &= z_0^2 + 0 \\ z_2 &= z_1^2 + c \end{aligned}$$

kompyuterda yechimlarini topsak ajoyib xususiyatlarga ega bo'lgan fraktal geometriyasiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida juda chiroyli quyidagi geometrik obyektlarga (Rasm 4.) olib keladi.



Rasm 4.Hozirgi zamон олимларининг марказије етебори Кононот фрактал формага ега бо'лиши мумкинлигига.

Google Earth servisi ma'lumotlarini o'rganish natijalaridan xattoki Yer relyeflari ham fraktallar ko'rinishda ekanligi ma'lum bo'ldi. Fraktal geometriyasida olingan natijalarni yengil sanoatda maxsulotlarga dizayn berishda, qurilish materiallarini yaratilishida qo'llanilsa juda ajoyib estetik natijalarga ega bo'lamiz.

Adabiyotlar

- Ibadov R.M., Usarov U.T., Umarova X.N. «Fraktal geometriyasidan sanoatda foydalanish imkoniyatlari to'g'risida», akademik Xabibullayev P.Q.ning 100 yiliga bag'ishlangan «Fizikaning dolzarb muammolari» respublika ilmiy-amaliy konferensiysi tuplami, Toshkent 2017 y., 176-177 b.
- Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S., Gafurova M.A. “Tikuv buyumlarni loyihalash, modellash va badiiy bezash”, “Noshir” nashiriyoti, Toshkent 2010.
- Бенуа Мандельброт «Фрактальная геометрия», М.: Институт компьютерных исследований, 2002. - 656 с.
- Мандельброт Б. «Фракталы, случай и финансы», Бенуа Мандельброт. — Москва — Ижевск: НИЦ «Регулярная и хаотическая динамика», 2004. – 256 с.



ILMGA BAXSHIDA UMR

Keyingi ikki yil ichida respublikamiz ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotining barcha jabhalarida misli ko'rilmagan o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbekiston respublikasi 2017-yil iqtisodiy ko'rsatgichlar bo'yicha eng yaxshi deb topilgan mamlakatlar ro'yxatidan ishonchli joy egalladi. Boshqa bir jihatni respublikamizda ilm-fan rivojiga ham katta e'tibor berila boshladi. Rivojlangan chet el mamlakatlari nufuzli oliv o'quv yurtlarining mamlakatimizda filiallarining ochilishi, Prezidentimizning ilm-fan nomoyodalari bilan uchrashuvlari, O'zbekiston FA institutlarining qayta tiklanishi aytilganlarga yaqqol misol bo'la oladi. Shundan e'tiborga molik ishlardan biri 1996-yildan buyon to'xtab qolgan O'zbekiston FA akademikligiga saylov ham qayta tiklandi va shu bugunga kelib respublikamiz iml-faniga salmoqli hissalarini qo'shib kelayotgan 32 nafar yirik olimlar akademiklar safigi qo'shildilar. Shulardan biri Bahodirxonov Muhammad Kabir Sayidxonovich bo'ladilar. U 1942-yil 27-avgustda Toshkent shahrida tavallud topdi. 1959-1965-yillarda Toshkent davlat universitetining fizika fakultetida "Yarim o'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi" yo'nalishi bo'yicha tahsil oldi. Universitetni muvaffaqiyatli tugatganidan so'ng, Leningrad shahridagi Ioffe nomidagi Fizika-texnika institutida "Yarim o'tkazgichlar fizikasi" sohasida yetuk olim Bori Iosifovich Boltaks rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini bajarib, 1971-yili himoya qildi. 1971-yildan Toshkent davlat universitetining Yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi kafedrasida pedagogik va ilmiy faoliyatini boshlagan M.Bahodirxonov, qisqa vaqt ichida tajribali, mohir ustozga aylandi, hamda Toshkent shahrida Yarimo'tkazgich materiallarida diffuzion jarayonlarni o'rganuvchi ilmiy maktabga asos soldi.

1985-yildan Toshkent politexnika institutida "Fizikaviy elektronika" kafedrasи mudiri sifatida faoliyat boshlagan Muhammad Kabir Bahodirxonov fizika sohasida yangi yo'nalish hisoblangan "Kirishma atomlari bilan kompensatsiyalangan kremlniy materialining elektrofizik, fotoelektrik, optik va galvanomagnit xususiyatlarini o'rganish" bo'yicha maktab yaratdi. Maktabning birinchi tadqiqotchilari o'z navbatida soha bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishdilar va respublikamizning Andijon, Samarqand, Nukus, Qarshi shaharlaridagi oliy ta'lim muassasalarida ilmiy yo'nalishning davomchilari sifatida o'zlarining ilmiy maktablarini yaratdilar.

Muhammad Kabir Bahodirxonovning rahbarligida yarimo'tkazgichlar fizikasida yangi ilmiy yo'nalish bo'lgan, kuchli kompensatsiyalangan kremlniy materialining elektrofizik xususiyatlari va ularni elektronika sanoatida qo'llash imkoniyatlarini ochib berishda 10 dan ortiq fan doktori va 40 dan ortiq fan nomzodlari dissertatsiyalarini himoya qildilar. Muhammad Kabir Bahodirxonov chet el olimlari tomonidan tan olingan o'z ilmiy yo'nalishini yaratdi va yuksak ilmiy yutuqlarga erishdi. Uning kamtarona mehnatlari respublika rahbariyati tomonidan yuksak baholanib, 1992-yilda fan va texnika sohasida Beruniy nomidagi Davlat mukofoti, shuningdek, Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi "Mustaqillik nishoni" medallari hamda O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarining Fahriy yorliqlari hamda ko'plab diplomlari bilan rag'batlantirildi.

U O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi, 2003-yilda Xitoy Xalq Respublikasining Sin Zyan davlat universiteti va 2012-yilda Qoraqolpog'iston Respublikasi Nukus davlat universitetining faxriy professori etib saylandi.

Muhammad Kabir Bahodirxonov 1985-yildan shu davrgacha Toshkent davlat texnika universitetining "Raqamli elektronika va mikroelektronika" kafedrasida pedagogik va ilmiy faoliyatini olib bormoqda. 1991-1992-yillar oralig'ida Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy ishlari bo'yicha prorektori, 1996-yildan 2003-yilgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

huzuridagi Oliy Attestatsiya qo'mitasi raisining birinchi muovini lavozimida faoliyat olib bordi.

Muhammad Kabir Bohodirxonov 10 dan ortiq ilmiy monografiya, 16 ta darslik, 300 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi va 20 ga yaqin ixtiolariga patentlik guvohnomalarini olgan.

Hozirgi kunda Toshkent davlat texnika universitetining raqamli elektronika va mikroelektronika kafedrasida bakalavrlar va magistrantlarga elektronika sohasi bo'yicha dars berishi bilan birga, xalqaro va respublika miqiyosidagi ilmiy loyihalarga, magistrant va fan doktorlariga ilmiy rahbarlik ham qilib kelmoqda.

E.U.Arziqulov

AKADEMIK S.N.LAKAYEV VA UNING ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATI



Pedagogik va tashkilotchilik faoliyati. Lakayev Saidaxmat Norjigitovich 1952-yil 9-martda Samarqand viloyat Payariq tumanida xizmatchi oilasida tug'ildi. 1968-yilda maktabni a'lo baholarga tugatib, shu yili Samarqand Davlat universiteti mexanika-matematika fakultetiga o'qishga kirdi va uni 1973-yilda muvaffaqiyatli tamomladi. S.N.Lakayev 1973-1978-yillarda Moskva Davlat universiteti (MDU) professori Robert Adolfovich Minlos rahbarligida diplom ishi yozdi, stajirovkada bo'ldi hamda shu universitetning matematika bo'limi aspiranturasida tahsil oldi. Aspiranturani bitirib kelgan yosh olim 1978-yildan Samarqand Davlat universiteti mexanika-matematika fakultetida *talabalarga tanlov* fanidan ma'ruza va seminarlar o'tishni boshladi va iqtidorli talabalarni ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishga jalb qildi. Jumladan, professorlar Sh.Qosimov, I.Ikromov, S.Imomqulov, J.Abdullayevlar talabalik

yillarida S.N.Lakayev rahbarligida ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishganlar. Hozirda S.N.Lakayev haqiqiy o'zgaruvchining funksiyalari nazariysi, funksional analiz, chiziqli operatorlar, o'z-o'ziga qo'shma operatorlarning spektral nazariysi fanlardan maruzalar o'qimoqda. Differensial tenglamalar va matematik fizika mutaxassisligi magistrantlariga ixtisoslik fanlardan ma'ruzalar o'qib kelmoqda. S.N.Lakayev 1981-yilda (fizika-matematika fanlari nomzodi, Moskva Davlat universiteti) nomzodlik, 1992-yilda (fizika-matematika fanlari doktori, Sankt-Peterburg Davlat universiteti) doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildi. U matematik analiz, funksional analiz hamda matematik fizika va funksional analiz kafedralarida assistent, dotsent va 1993-yildan professor lavozimida ishlab kelmoqda.

Mustaqillik davrida S.N.Lakayev ilmiy maktabi pedagogik kadrlar tayyorlashda salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Uning ko'p qirrali faoliyatida yosh olimlarni tarbiyalash va mutaxassislar tayyorlash alohida o'r'in tutadi. Uning rahbarligida 2 ta fan doktori J.Abdullayev (2001), A.Xalxo'jayev (2016) va 13 ta fan nomzodi J.Abdullayev (1992), E.Chulfa (1997), M. Mo'minov (1997), A.Xalxo'jayev (2001), Sh.Tilavova-Xudoynazarova (2001), I.Xayrullayev (2002), S.Samatov (2004), U.Soatoev (2004), T.Rasulov (2005), Z.Mo'minov (2008), I. Bozorov (2008), G. Yodgorov (2009), Sh. Xolmatov (2012), 3 ta falsafa doktori (PhD) Sh.Latipov (2017), S.Ulashov (2017), Sh.Qurbanov (2018) tayyorlangan.

U oilali, 5 nafar (ikkita qiz va uch o'g'il) farzandi bor.

Akademik S.N.Lakayev Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng xalqaro ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, Respublikamiz fani yutuqlarini jahonga targ'ib etish bo'yicha qator yutuqlarga erishdi. Jumladan, Fransiya (1995, 2000), Italiya (1998, 2001), Germaniya (1996, 1998, 2000-2012), Angliya (2000), Turkiya (1999, 2004), Rossiya (1995, 2000, 2011, 2016), Armaniston (2005, 2007), Malayziya (2012), AQSh (2013-2014) kabi mamlakatlarga taklif qilindi va xalqaro kongresslar, simpoziumlar, konferensiylar, ilmiy seminarlarda ma'ruzalar qildi.

Akademik Saidaxmat Lakayev 1994-2012-yillarda universitetda faoliyat ko'rsatish bilan birga O'zRFA Samarqand bo'linmasi "Matematika" bo'limiga rahbarlik qildi, bo'limda aspirantura va doktorantura ochdi.

Akademik S.N.Lakayev say'i-harakatlari tufayli Samarqand Davlat universitetida 2003- yilda "Matematik-fizika" kafedrasi tashkili qilindi hamda kafedrada ixtisoslik bo'yicha magistratura, aspirantura va doktoranturalar ochildi.

Akademik S.N.Lakayevning tashkilotchilik faoliyati va bevosita ishtiroki natijasida Samarqand Davlat universitetida Matematik fizika va funksional analiz kafedrasi va Germaniyaning Rur, Bonn, Maynz, Braunshveyg universitetlari; Angliyaning Zusseks universiteti; Italiyaning SISSA, ICTP ilmiy markazlari, Rim universiteti; AQShning Kolumbiya (Missuri), Devis (Kaliforniya) universitetlari; Shvetsiyaning Stokholm universiteti, Rossiyaning Moskva Davlat universiteti, Informatsiyani uzatish muammolari ilmiy tadqiqot instituti, Dubna shahridagi Yadro tadqiqotlari Birlashgan instituti; Malayziyaning Malayziya, Mara texnologiya universitetlari, Putra, Kebangsaan universitetlari kabi qator yirik ilmiy markazlar o'rtaida ilmiy hamkorlik yo'liga qo'yilgan va ular bilan xalqaro ilmiy loyihalarni bajarish ustida ish olib borilmoqda.

Akademik S.N.Lakayev ilmiy maktabi xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e'tirof etilmoqda.

Xorijiy olimlar bilan hamkorlik aloqalari. S.N.Lakayev 1972-1978-yillarda Moskva Davlat universitetida stajirovkada bo'lgan va aspiranturada tahlil olgan davrlarida ko'plab xorijiy olimlar Ya.G.Sinay, R.L.Dobrushin, D.R.Yafayev, S.P.Merkuryev, P.Exner, P.Seba, A.Mogilnerlar, keyinchalik S.A.Vugalter, G.M.Jislin, S.Albeverio, J.Dell Antonio bilan tanishdi va ular bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatdi. Natijada S.N.Lakayev bir qator xorijiy mamlakatlarda ilmiy xizmat safarlarida bo'ldi. U 1985-86-yillarda 10 oy Chexoslovakiyaning Karlov universitetida hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib bordi, 1996 va 2000-yillarda Germaniyaning Rur va Bonn universitetlari (5 oy) hamda 2001-2012-yillarda esa har yili (2-3 oy) shogirdlari J.Abdullayev, M.Shermatov, S.Samatov, M.Mo'minov, Z.Mo'minov, T.Rasulov va A.Xalxo'jayevlar bilan birga Germaniyaning Bonn universiteti professori S.Albeverio taklifiga ko'ra Germaniyaning DFG (Deutschen Forschungsgemeinschaft) ilmiy fondi DFG 436 UZB 113/3, DFG 436 UZB 113/4, DFG 436 UZB 113/6, DFG 436 UZB 113/7 grantlari asosida hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib bordi, ilmiy seminar va konferensiyalarda ma'ruzalar qildi. Bu grantlarda akademiklar Sh.Ayupov (shogirdlari bilan), Sh.Alimovlar ham ishtirok etdilar.

S.N.Lakayev 1998 yilda Italiyaning Xalqaro nazariy fizika markazida (International centre for theoretical Physics – ICTP 3 oy), 2001 yil prof. J.Dell Antonio taklifiga ko'ra Italiyaning SISSA ilmiy markazi va Rim universitetlarida (1 oy) bo'lib, ilmiy seminar va konferensiyalarda ma'ruzalar qildi va hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

Akademik S.N.Lakayev 2012-yilda Malayziya Mara texnologiya universitetiga taklif etilgan professor sifatida Malayziyaning Mara, Malayziya texnologiya universiteti, Putra, Kebangsaan universitetlariда 2 oy mobaynida magistr va olimlar uchun ilmiy ma'ruzalar o'qidi hamda prof. A.Ibrohim va M.Daruslar bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

Akademik S.N.Lakayev 2013-2014-yillarda Fulbrayt granti sovrindori sifatida 10 oy davomida AQShning Devis (Kaliforniya) va Kolumbiya (Missuri) universitetlarida ilmiy tadqiqotlar olib bordi va Kolumbiya (Missuri), Prinseton (Nyu-Jersi), Fullerton, Irvayn, Devis (Kaliforniya), Ana J.Mendez (Puerto-Riko) universitetlarida matematik fizika ilmiy seminarlarida talabalar hamda olimlar uchun ilmiy ma'ruzalar qildi, olingen ilmiy natijalarini muhokama qildi.

2017-2018-yillarda akademik S.N.Lakayevning 3 nafar shogirdi Sh.Latipov, S.Ulashov, Sh.Qurbanovlar falsafa doktori -- PhD dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar. 2018-yilda shogirdi prof. A.Xalxo'jayev rahbarligida Sh.Lakayev PhD dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Olimning 3 nafar shogirdi (M.Mo'minov, Z.Mo'minov, T.Rasulov) doktorlik dissertatsiyalarini himoyaga tayyor qilishgan, 3 nafar shogirdi (A.Xurramov, S.Do'stov, A.Boltayev) va prof. J.Abdullayev, M.Mo'minov, Z.Mo'minovlarning 4 nafar shogirdlari (B.Mamirov, U.Shodiyev, N.Aliyev, U.Quljonovlar) PhD dissertatsiyalari talablariga mos ilmiy natijalarga erishganlar.

Akademik S.N.Lakayevning shogirdlari hozirgi paytda Italiya (Sh.Xolmatov), Avstraliya (Sh.Allado'stov), Malayziya (M.Mo'minov, Z.Mo'minov) va Turkiya (E.Chulfa) mamlakatlari ilmiy markazlarida hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Umumlashgan Fridrixs modelining spektral xossalari. Nemis va AQSh matematigi K.Fridrixs tomonidan 1938-yilda uzlusiz spektr qo'zg'alishini ifodalovchi model operatorini kiritdi. 1968 yilda ushbu operator L.D.Faddeyev tomonidan umumlashtirildi va har ikkala olim tomonidan tadqiq qilindi. Keyinchalik bu operator Fridrixs modeli deb ataldi. Ta'kidlash joizki, ushbu operatorning uzlusiz

spektridagi barcha nuqtalarning karraliligi bir xil bo‘ladi. S.N.Lakayev fanga birinchi bo‘lib qo‘zg‘almas operator bir o‘lchamli kesmada aniqlangan Van-Xov maxsusligiga (kritik nuqtalarga) ega bo‘lgan ixtiyoriy funksiyaga ko‘paytirish operatori bo‘lgan holni kiritdi va bu modelni umumlashgan Fridrixs modeli deb atadi. Bunda uzlusiz spektr karraliligi Fridrixs modelidan farqli o‘laroq o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin. S.N.Lakayev bu model hamda ikki zarrachali sistemalarning xos qiymatlarini va rezonanslarini o‘rganishga Fredholm determinantini qo‘llash usulini va uni analitik davom ettirish nazariyasini yaratdi.

Umumlashgan Fridrixs modelining muhim spektral xossalari S.N.Lakayev va J.Abdullayevlar tomonidan keng o‘rganildi. S.N.Lakayev, J.Abdullayev va I.Ikromovlar uzlusiz spektrda berilgan sondagi xos qiymatlarga ega bo‘lgan umumlashgan Fridrixs modeli qurdilar va kichik qo‘zg‘alishlar natijasida bu xos qiymatlarning fizik rezonanslarga aylanishini ko‘rsatdilar. I.Ikromov va F.Sharipovlar umumlashgan Fridrixs modelining keng sinfi uchun, qo‘zg‘almas operatorni aniqlovchi ko‘paytirish funksiyasi chekli karrali yakkalangan kritik nuqtalarga ega bo‘lganda diskret spektr chekliligining yetarli shartlarini topdilar. Shuningdek, zamonaviy matematik fizika (kvant mexanikasi, statistik fizika va maydonlar nazariyasi) asoslari jiddiy o‘rganildi. S.N.Lakayev umumlashgan Fridrixs modeli, uzlusiz Shryodinger operatorlari hamda statistik fizika masalalarini yechishda paydo bo‘ladigan stoxastik operatorlarning spektral nazariyasi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

S.N.Lakayev, A.Ibrohim, M.Darus, Sh.X.Qurbanov va S.T Do‘slovlar bir, ikki va uch o‘lchamli panjaralarda nolokal potensial vositasida ta’sirlashuvchi ikkita bir xil zarrachali sistemaga mos rangi birga teng qo‘zg‘alishli umumlashgan Fridrixs modeli uchun bo‘sag‘a effektini o‘rgandilar. 1980-yillarda S.N.Lakayev bilan hamkorlikda dotsent E.Abduoqodirov va S.G.Djangiryan, S.Imomqulov, M.Shermatov, R.Shamsiyev kabi talabalar umumlashgan Fridrixs modelining xos qiymatlari va rezonanslari paydo bo‘lishi hamda uning sabablarini o‘rgandilar. Xususan, S.N.Lakayev va S.G.Djangiryan-lar Fridrixs modelining cheksiz sondagi rezonanslarga ega bo‘lishini ko‘rsatishgan.

Soni saqlanmaydigan zarrachalar sistemasiga mos Hamiltonianning xossalari. Zarrachalar soni saqlanmaydigan sistemalarga mos Hamiltonianning spektral xossalari o‘rganish Fridrixs modelining yana bir yo‘nalish bo‘yicha umumlashmasini qarashga olib keldi. Fok fazosida qaralgan Hamiltonian uchun ko‘p hollarda “**■ zarrachali**” qism fazolar invariant bo‘ladi va Hamiltonianni “**■ zarrachali**” fazoni o‘zini-o‘ziga akslantiruvchi operator sifatida qarab uning xossalari o‘rganiladi. Statistik fizika va kvant maydonlar nazariyasining bazi masalalarida “**■ zarrachali**” qism fazolar Fok fazosida qaralgan Hamiltonian uchun invariant bo‘lmaydi. Natijada soni saqlanmaydigan sistemalarni qarashga to‘g‘ri keladi. Bunday sistemalarga ikki magnonli spin polyaronli sistemanini misol keltirish mumkin. Ikki magnonli spin polyaronli sistemaning spektral xossalari birinchilardan bo‘lib R.A.Minlos, S.N.Lakayev, A.Mogilner va J.Abdullayev ishlarida tadqiq qilingan. S.N.Lakayev, Sh.Latipov va A.Boltayevlar tomonidan panjarada kontakt potensiali paydo qiluvchi va yo‘qotuvchi operatorlar yordamida ta’sirlashuvchi zarrachalar soni saqlanmaydigan va ikkitadan oshmaydigan sistemalarning bog‘langan holatlari mavjudligi yoki mavjud emasligi operator parametrlariga bog‘liq ravishda o‘rganildi.

Kvant mexanikasida uch zarrachali sistemalardagi Efimov effekti deb ataluvchi hodisaning yuzaga kelishi faqat zarrachalarning o‘zaro ta’sir kuchiga bog‘liq bo‘ladi. Ammo S.N.Lakayev, S.Albeverio, T.Rasulovlar birinchilardan bo‘lib, statistik fizika va kvant maydonlar nazariyasi masalalarida paydo bo‘ladigan soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan o‘zaro ta’sirga ega bo‘lmagan, biroq paydo qiluvchi va yo‘qotuvchi operatorlar yordamida harakatlanuvchi erkin zarrachalar sistemasi uchun ham Efimov effekti mavjud bo‘lishini isbotladi ya’ni Efimov effekti universal xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatdilar. Bundan soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan, ammo faqat paydo qiluvchi va yo‘qotuvchi operatorlar yordamida harakatlanuvchi erkin zarrachalar sistemasining bog‘langan holatlari mavjud bo‘lishi kelib chiqadi.

Panjaradagi ko‘p zarrachali sistemalarga mos Shryodinger operatorining bog‘langan holatlari. Atom va molekulyar hamda qattiq jismlar fizikasi, kvant maydonlar nazariyasining asosiy masalalari Shryodinger operatorlarini o‘rganishga qaratilgan. Bu sohada olingan natijalar to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlar zamonaviy matematik fizikaning “ensiklopediyasi” – M.Rid va B.Saymonning to‘rt tomli kitobida keltirilgan. Ammo, Rossiya Fanlar Akademiyasi akademigi, zamonaviy matematik fizikaning tashkilotchilaridan biri, uch o‘lchamli kvant sochilish nazariyasi teskari masalasi va uch kvant jism muammosini yechishda hal qiluvchi hissa qo‘shgan, Leningrad matematik fizika maktabi asoschilaridan biri L.D.Faddeyev va uning safdoshlari hamda shogirdlari xizmatlarini alohida

ta'kidlash lozimdir. S.N.Lakayev 1980-yillar so'ngida professor R.A.Minlos va nazariy fizika bo'yicha mutaxassis A.Mogilnerlar (AQSh Kurant instituti professori) taklifi va ta'sirida butun sonli panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalarning muhim spektri tavsifi va bog'langan holatlari mavjudligi (Efimov effekti) kabi matematik muammolar bilan shug'ullanishni boshladi. U panjaradagi zarrachalar sistemalarini tavsiflovchi Xabbard modeli, jumladan bir, ikki, uch va to'rt zarrachali sistemalar Hamiltonianlari va ularning kvaziimpulsalarini kiritib, bu Hamiltonianlarni Fon-Neyman to'g'ri integraliga yoydi va uni ikki, uch va to'rt zarrachali sistemalarga mos Shryodinger operatorlari oilasini o'rghanishga keltirdi. Ushbu operatorlar oilasi uchun kutilmagan (uzluksiz Shryodinger operatorlarida uchramaydigan) muhim va noyob natijalar olindi, jumladan Efimov effekti va kvaziimpulsning bo'sag'a effektlari aniqlandi va isbotlandi.

S.N. Lakayev birinchi bo'lib uch o'lchamli panjarada juft-jufti bilan o'zaro kontakt potensial yordamida ta'sirlashuvchi ikki bozonli sistemaga mos nomanfiy diskret Shryodinger operatori kvaziimpulsning nol qiymatida muhim spektrning quyi bo'sag'asida virtual sathga ega bo'lgan holda, u kvaziimpulsning barcha nolmas qiymatlarida muhim spektr bo'sag'asidan pastda xos qiymatga ega bo'lishini, ya'ni **kvaziimpulsning bo'sag'a effekti** sodir bo'lishini ko'rsatdi. Keyinroq S.Albeverio, S.N.Lakayev, K.A.Makarov, Z.E.Mo'minovlar va S.N.Lakayev, Sh.Allado'stovlar tomonidan **kvaziimpuls-ning bo'sag'a effekti** ikkita ixtiyoriy zarrachali sistemalarining keng sinfi uchun uch va undan katta o'lchamli panjaralarda isbotlanib mantiqiy yakuniga etkazildi.

Efimov effekti - bu 1970 yilda Rossiyalik nazariyotchi fizik V.N. Efimov kvant mexanikasida uch jism sistemasi uchun oldindan bayon qilgan effektdir (bu effekt 40 yildan keyin Avstriyalik fizik olim Rudolf Grimm tomonidan tajribada tasdiqlandi). Efimov effekti uchta bir xil bozonning o'zaro ta'sirini ifodalaydi va uchta zarrachaning cheksiz ko'p energetik sathlari mavjudligini ta'kidlaydi. Bunda agar ikki o'zaro tortishuvchi bozonlar juftining tortishish kuchi yetarlicha kuchsiz bo'lsa ham uchta bozonli bog'langan holatlar mavjudligi kelib chiqadi. Ikki zarrachali (jismli) qism sistemalar bog'lanmagan bo'lganda, Efimov holati (uch zarracha uchun) ko'pincha Borromeo halqasi kabi tasvirlanadi, demak, agar uch obyektdan biri uzoqlashtirilsa, qolgan ikkitasi mustaqil ikkita ob'ektga ajraladi, bunday Efimov holati **Borromeo holati** deyiladi. Efimov effekti mavjudligining qat'iy matematik isboti birinchi bo'lib D.R.Yafayevning (Renne universiteti, Fransiya), keyinchalik Yu.N.Ovchinnikov (Murakkab sistemalar Maks Plank instituti) va I.M.Sigal (Toronto universiteti, Kanada) larning ishida, shuningdek, A.Sobolev (London kollej universiteti, Angliya) va X.Tamura (Ibaraki universiteti, Yaponiya) lar maqolalarida keltirilgan.

S.N.Lakayevning o'tkir matematik intuitsiyasi va chuqur analitik bilimi unga fanda birinchi bo'lib uch o'lchamli panjaradagi uchta bir xil zarrachali sistema uchun **Efimov effekti** mavjudligini isbotlashga va Efimov effekti mavjud bo'ladigan **sistema kvaziimpulslari to'plamini** ajratishdek noyob va nozik natijani qo'lga kiritishga imkoniyat yaratdi.

Shuningdek, S.N.Lakayev o'zining doktorlik dissertatsiyasida va keyingi ilmiy ishlarida panjaradagi ikki va uch zarrachali sistemalar uchun, uzluksiz fazoda harakatlanuvchi ikki va uch zarrachali sistemalarda uchramaydigan, quyidagi yangi effektlarni aniqladi:

1.Itarishuvchi zarrachalar effekti. Panjaradagi ikki va uch o'zaro itarishuvchi zarrachalar sistemalariga mos ikki va uch zarrachali diskret Shryodinger operatorlari energetik sathi muhim spektr tepasidan yuqorida yotuvchi bog'langan holatlarga ega (bu effekt ikki zarracha uchun 2006 yilda Avstriyaning Insbruk universiteti olimlari tomonidan tajribada tasdiqlangan).

2.Panjara effekti. Uch o'lchamli panjaradagi o'zaro juft-jufti bilan tortishuvchi kontakt ta'sirli uchta ixtiyoriy zarrachali sistemada Efimov effekti, hattoki ikki zarrachali uchta qism sistemalardan birining energetik sathi uch zarrachali kontinuumdan quyida joylashgan bog'langan holatlarga ega bo'lsa ham, qolgan ikkitasi uch zarrachali kontinuum tubida virtual sath (rezonans)ga ega bo'lsa, bu uch zarrachali sistemada Efimov effekti mavjud bo'ladi, ya'ni uch zarrachali Shryodinger operatorlari energetik sathlari ikki va uch zarrachali kontinuumlar orasida bo'lgan cheksiz sondagi bog'langan holatlari mavjud va ularning energetik sathlari uch zarrachali kontinuum bo'sag'asi (tubi)ga intiladi. Bu Efimov effekti uzluksiz tortishuvchi zarrachalar sistemasida uchramaydi.

3.Efimov effekti va kvaziimpuls bo'sag'a effekti. Uch o'lchamli panjaradagi o'zaro juft-jufti bilan itarishuvchi (tortishuvchi) kontakt ta'sirli uchta zarrachali sistemada faqat **kvaziimpulsning nol**

qiymatida Efimov effekti o‘rinli, ya’ni uch zarrachali sistemaning energetik sathlari uch zarrachali kontinuumdan yuqorida (quyida) joylashgan cheksiz sondagi bog‘langan holatlari mavjud va ularning energetik sathlari uch zarrachali kontinuum tepasiga (tubiga) intiladi. **Kvaziimpulsning nolmas qiymatlarida** uch zarrachali sistema energetik sathlari uch zarrachali kontinuumdan yuqorida (quyida) joylashgan faqat chekli sondagi bog‘langan holatlarga ega.

S.N. Lakayev Germaniyalik matematiklar Folker Bax va Valter Pedralar bilan hamkorlikda bog‘langanlik o‘zgarmasining katta qiymatlarida bir va undan katta o‘lchamli panjaralarda Shryodinger operatori diskret spektri uchun, ikki tomonlama chegara ma’nosida, **Veyl asimtotikasining** to‘g‘riligini muhokama qilgan.

S.N.Lakayev, E.Ozdemir, I.Bozorovlar bir va uch o‘lchamli panjaralarda kontakt ta’sir, panjara qo’shni tugunlaridagi o‘zaro ta’sir parametrlari orqali aniqlanuvchi diskret Shryodinger operatori muhim spektridan quyida, shuningdek undan yuqorida joylashgan xos qiymatlari soni to‘liq o‘rganilgan. S.N.Lakayev, Sh.Tilavova, S.Ulashovlarning qator maqlolarida o‘zaro ta’sirlashuvchi ikki zarrachali sistemalar uchun kvaziimpuls effekti nafaqat tortishuvchi, balki itarishuvchi potensiallar uchun ham o‘rganilgan.

S.N.Lakayev, A.M.Xalxo‘jayev, Sh.Yu.Xolmatov va Sh.S.Lakayevlar tomonidan kontakt potensial yordamida tortishuvchi va itarishuvchi ikki zarrachali sistemalarga mos Shryodinger operatorlarining muhim spektridan tashqarida yagona xos qiymat mavjudligi isbotlandi va ushbu xos qiymat uchun bog‘langanlik o‘zgarmasi va kvaziimpulslar bo‘yicha asimptotikalar olindi. M.Mo‘minov va A.Xurramovlar bir va uch o‘lchamli panjaralarda ekzotik potensial yordamida o‘zaro ta’sirlashuvchi ikki zarrachali sistemalar virtual sathi va xos qiymatlari mavjudligi zarrachaning panjara qo’shni tugunlariga sakrashini ifodalovchi dispersion munosabatlar, ikki zarrachali kvaziimpuls va panjara o‘lchamlariga bog‘liq ravishda o‘rganilgan.

S.N.Lakayev, S.Albeverio va Z.E.Mo‘minovlar maqlolarida uch o‘lchamli panjaradagi uchta ixtiyorli tortishuvchi zarrachalar sistemasiga mos uch zarrachali diskret Shryodinger operatori uchun **Efimov effekti va kvaziimpulsning bo‘sag‘a effekti** isbotlandi. Operator muhim spektri uch zarrachali kontinuum va undan quyida joylashgan chekli sondagi ikki zarrachali kontinuumlardan iborat ekanligi ko‘rsatildi. C.N.Lakayev, J.Abdullayev, Z.E.Mo‘minov, A.Xalxo‘jayev va M.Shermatovlar ishlarida turli uch zarrachali sistemalar uchun Efimov effekti isbotlandi va xos qiymatlari soni uchun asimptotik formulalar olindi. S.N.Lakayev va S.M.Samatovlar tomonidan sistema bog‘langan holatlari soni chekliligi isbotlangan. S.N.Lakayev, S.Albeverio va J.Abdullayevlar tomonidan to‘rt zarrachali sistemalarda **Efimov effekti mavjud emasligi** ko‘rsatilgan.

S.N.Lakayev, J.Dell-Antonio, A.R.Xalmuxamedov, A.M.Xalxo‘jayev va Sh.S.Lakayevlar, birinchi bo‘lib, qator ilmiy maqlolarida bir va ikki o‘lchamli panjarada juft-jufti bilan o‘zaro tortishuvchi (itarishuvchi) kontakt potensiallar yordamida ta’sirlashuvchi uchta bozonli hamda ikkita bir xil fermion va bozondan iborat sistemalarning energetik sathlari muhim spektr tubidan quyida (tepasidan yuqorida) joylashgan bog‘langan holatlarning mavjudligi va xos qiymatlari soni chekliligi ko‘rsatilgan. Bu natijalar hatto uch zarrachali uzlusiz Shryodinger operatorlari uchun ham yangidir.

Akademik S.N.Lakayev tomonidan 140 dan ziyod ilmiy maqlolar chop qilingan, ulardan 45 tasi AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlarning yuqori impakt faktorli jurnallarida nashr etilgan hamda bu maqlolarga ko‘plab (1054) havolalar qilingan.

S.N.Lakayevning matematika sohasida erishgan muvaffaqiyatlari Respublika ilmiy hamjamiyati tomonidan e’tirof etilib, unga yuksak daraja O‘zR Fanlar Akademiyasining akademigi ilmiy unvoni berildi. S.N.Lakayevning O‘zR Fanlar Akademiyasining haqiqiy a’zoligiga qabul qilinishi unga katta masuliyat yuklaydi. Akademik S.N.Lakayev kuch-g‘ayratga to‘la, unda matematik fizika va oily ta’lim muammolarini yechish uchun ko‘plab g‘oyalar mavjud. Lakayev Saidaxmat Norjigitovich ilmiy, pedagogik, tashkilotchilik faoliyatida bundanda yuksak natijalarga erishishiga hamda Respublikamiz uchun yuqori malakali, ilmiy salohiyatli pedagogik kadrlar tayyorlashda o‘zining munosib hissasini qo’shishiga hech qanday shubha yo‘q.

**I.A. Ikromov,
J.I. Abdullayev,
A.M. Xalxo‘jayev**

SAMARQAND TURIZM IQTISODIYOT MAKTABINING YETAKCHI NAMOYONDASI

*Agar inson biror kasbni mukammal egallasa,
mehnat unga huzur bag'ishlaydi.*

Andre Morua.



O'zbekiston va umuman jahonda iqtisodiyot fanining tarixi, uning rivojlanish bosqichlari yetarlicha o'rganilmagan soha bo'lib qolmoqda. Fan tarixini o'rganuvchi bu fanning shakllanishini yaqin o'tmishga, aniqrog'i – Adam Smit va David Rikardolar (XVIII asr ikkinchi yarmi) nomi bilan bog'laydilar. Ammo bu fikrlar fan tarixining yevropacha talqini uchun ilmiy muomilaga kiritish uchun zarur edi. Bizning nazdimizda, jahonshumil ilmiy ixtiolar, yangiliklar mualliflari bo'lgan, o'z aql-idroki, ijodkorlik qobiliyati bilan butun dunyoni lol qoldirgan allomalar makon topgan Movarounnahr va islom sivilizasiyasining beshigi bo'lgan Sharq mamlakatlarida savdo-soti, tijorat va umuman iqtisodiyotga oid bilimlarni to'plash va uni ilmiy jihatdan o'rganish an'anasi qadimdan mavjud ekanligini e'tirof etmoq lozim. Unutilmas hamyurtimiz Abu Muqotil as – Samarqandiy tomonidan IX – asr boshlarida bitilgan va Abu Mansur Muhammad Motrudiy yaratgan motrudiya ta'limotining asosi hamda manbalaridan biri hisoblanadigan "Kitob al-olim va – al-mutaollim" ("Ustoz va shogird kitobi") asarining ilk sahifalarida "Ilm – doimiy asoslanadigan tayanchimizdir. Amal ilmning natijasigina bo'lishi mumkin, xolos, va u hyech qachon yetishmagan bilimlarning o'rnnini bosolmaydi", degan o'gitni o'qiyimiz. Mazkur o'git Markaziy Osiyo olimlari mashg'ul bo'lgan ilm turlari tasnifi – Ulumi mudavvanada, shuningdek, ilmu fanning "oltin davridayoq" tashkil topa boshlagan madrasalar o'quv rejalarida shar'iy-diniy, ilohiyot bilimlarini beruvchi fanlar bilan bir qatorda, g'ayri-sha'riy, ya'ni diniy bo'Imagan fanlarning kiritilishida o'z o'rmini topganligi aniq. Madrasalarning oliy bosqichida o'qitilgan ilmi ijtimo, ilmi muhosobat, ilmi siyoq kabi fanlar mundarijasini iqtisodiyotga oid bilimlarsiz tasavvur qilish qiyin. Shu o'rinda sara olimlarni to'plab, ularga homiylik ko'rsatishni doimo maqbul ko'rgan Amir Temur iqtisodiyot har qanday saltanatning poydevori ekanligini ta'kidlayotib, ijtimoiy - iqtisodiy bilimini egallash davlat tizimi barqarorligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri ekanligini o'z "Tuzuklari"da ta'riflab bergenligini ham unutmaslik kerak.

Temuriylar davrida bunyod qilingan va elimiz ma'naviy-ma'rifiy ravnaqiga benihoya katta hissa qo'shgan oliy madrasalar vorisi bo'lgan Samarqand davlat universiteti tashkil qilinganining dastlabki kunlaridan boshlaboq, ilm va ta'lif sohasidagi qadimgi an'analarning davomchisi sifatida, ularni avaylab-asrab saqlash hamda yangidan rivojlantirish yo'llini tanlagan maskan ekanligini namoyon etib kelmoqda. Natijada, universitet tashkiliy tuzilmasidan muqim o'rin egallagan iqtisodiyot kafedrasi ham ziyo nurini tarqatish, yoshlarga ilm va bilim berish manbasiga aylandi. Universitet rahbariyati esa muntazam kafedra tarkibini kuchaytirish, uning ilmiy salohiyatini oshirish izmida bo'ldi. Turli hududlardan taklif qilingan mutaxassislar tajribasidan keng va unumli foydalanish zarurati keng miqyosda targ'ib qilindi. Pirovardida, universitet bag'rida o'tgan asrning oxirlarida Yu.Dunayev, K.Saidov, E.Xo'jayev, B.Mirzaxujayev, E.Aliqulov singari iqtisodiyotchilarning yangi avlodи shakllandiki, ularning ijodida bilimning har bir inson uchun naqadar zarur ekani, bilim ma'naviy kamolot eshigini ochib beradigan birlamchi kalit ekanligi ruhiyatni barq urib turar edi.

Ammo unutmeylik-ki, olimning salohiyatini qadrlash, e'tirof etish uchun u yashab turgan jamiyat uning bajargan ishining mohiyatini anglab yetish va baholash qudratiga ega bo'lishi lozim. Har qanday ilmiy faoliyatning metodologik asosini markscha-leninchcha g'oyalar soyasidan izlashga majburlangan, hatto, mashhur iqtisodchilar A.Smit va D.Rikardonning mahsulot qiymatini surʼat qilingan mehnatga nisbatan belgilash haqidagi klassik nazariyasini ham "burjuachilik"da ayblash yo'llidan borgan sho'rolar tuzumi sharoitida ilmiy haqiqatni aytish, voqyelikni to'g'ri baholash va sharhlash naqadar mushkul kechganligini tasavvur qilib ko'ring. Tabiiyki, bunday sharoitda ilm ahli fan rivoji yo'nalishlarini oldindan ko'ra oladigan va boshqalarni shu yo'nalishlar sari yetaklay oladigan yetakchi-liderga muhtojlik sezadi, aks holda fan bir joyda tepsinishdan nariga o'tmaydi, izlanishlardagi oqilonalik va obyektivlik izsiz yo'qoladi. o'

Xayriyatki, samarqandlik iqtisodiyotchilar orasida ilmiy mulohazadagi obyekтивликни qo‘riqlaydigan, ilmiy tadqiqot obyekti va mahsulini real voqyelikdan qidirishga undaydigan yetakchilar bor ekan. Ana shunday insonlardan biri, so‘zsiz, professor Karim Saidov (1928-2006) edi. Iqtisodiyot jamiyat taraqqiyoti mahsuli sifatida odamlar ehtiyoji va talablarini qondirishga yo‘naltirganligiga doimo ishongan va boshqalarni ham shunga ishonishga chaqirgan bu inson o‘z vazifasini hamkasblarini iqtisodiyot fanining tub ijtimoiy jihatlarini tahlil qilishga chorlash lozimligida deb bilar edi. Yetakchining mahorati uning tashabbuskorligi va dadilligida namoyon bo‘ladi, dovyuraklikdan xabarsiz shaxs o‘zgalarni ergashtira olmaydi. Karim Saidovning fuqaro va olim sifatidagi jasoratini uning o‘sha mustabid tuzum davridayoq chop qilgan ilmiy ishlarida, tayyorlagan dissertasiyalarida aholining turmush-sharoitini, urbanizasiyaning ijtimoiy oqibatlarini o‘rganish masalasi ustuvorlik qilganida ko‘rishimiz mumkin.

Umuman, professor K.Saidov shijoatlari, rostgo‘y, o‘z fikrini isbotlashda hyechkim va hyech narsadan tap tortmaydigan shaxs edi. Ehtimol, domlaning bu fazilatlarga sohib bo‘lishi va ilmu-fandaadolat, haqiqatgo‘ylik tarafdori bo‘lishini uning hozirgi kunda buyuk alloma Imom al-Motrudiymaqbarasi tiklagan Chokardiza qabristoniga yaqin mavzeda voyaga yetganligi hamda motrudiya maktabining davomchisi Imom Abu Lays as-Samarqandiy madrasasi yaqinida joylashgan maktabda 7 yillik bilimni olganligi bilan bog‘liqidir. Zero, bul zotlarning ruhi ularni o‘ziga yaqin tutgan har bir insonga aqlu-zakovat va ildamlikka undovchi shijoat baxshida etishi muqarrar. Buyuk ajdodlar ruhini e’zozlashdan horimagan olimning ilmiy faoliyati mahsulorligi uning qalami ostida 250 dan ortiq ilmiy ish yaratilganligida namoyon bo‘ladi. Eng muhimi, ushbu ishlarning barchasi yangilikka dahldor, ularning xulosalarida nazariya va amaliyot mushtaraklashgan, faktlar talqinida hurfikrlilik ustuvorlik qiladi.

Iqtisodiyot dunyosiga mashhur O‘zbekiston turizm iqtisodiyoti ilmiy maktabi paydo bo‘lgan qutlug‘ maskan Samarqand davlat universiteti bo‘ldi. Iqtisodiyotning bu sohasiga doir nazariy va amaliy tadqiqotlar O‘zbekistonda mana shu ilmiy maktab shakllanishidan boshlandi. Bunda atoqli iqtisodchi olim, professor Karim Saidovich Saidovning xizmati katta bo‘ldi. O‘zbekiston iqtisodchi olimlarining bu sohadagi barcha yutuqlari shu buyuk insonning nomi bilan bog‘liqidir. U zabardast olim va ajoyib pedagog sifatida O‘zbekistonda o‘ziga ko‘pgina iqtidorli hamkor va shogirdlar topib, ularning iqtisodiyot fanida o‘z o‘rnini topishiga behad katta hissa qushdi. O’tgan asrning 60 yillardan to oxiriga qadar K.Saidov Yu.Dunayev, B.Mirzaxujayev, E.Aliqulov bilan hamkorlikda ishladi. Sal keyinroq, ularga X.Qosimov, Z.Karimov, R.Kushatov, B.Usmonov, B.Turayevlar ham qo‘silib, iqtisodiyotning nazariy va amaliy tadqiqotlari bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Xullas, K.Saidov, E.Aliqulovlarning hamkorlikdagi ijodiy mehnatlari samarasi ila O‘zbekistonda ilk bor turizm iqtisodiyoti ilmiy maktabi XX asrning 90 yillarda shakllanib, hamon samarali rivojlanib kelmoqda.

Aytish joizki, ilmiy faoliyatdagi batamoman hurfikrlilikka faqat mustaqillik sharofati ila erishildi. Barcha ijtimoiy fanlar vakillari qatorida, iqtisodiyotchi olimlar ham kommunistik firqaviy ta’limot iskanjasidan qutulib, bozor munosabatlarini aks ettiruvchi iqtisodiyot tamoyillarga asoslangan tizim tadqiqi imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Professor K. Saidovning tadqiqotchilik, tashkilotchilik qobiliyati mustaqillik davriga kelib yanada keng ko‘lamda namoyon bo‘la boshladi. Iqtidori cheksiz olim zudlik bilan ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, oila iqtisodiyoti va uni tashkillashtirish, davlatlararo iqtisodiy munosabatlarga oid mavzular tadqiqi bilan shug‘ullanishga kirishib ketdi. Iqtisodiyotning jamiyat taraqqiyoti, unda mavjud bo‘lgan holatlar bilan boy‘liq jihatlarini asosli ravishda izohlash maqsadida hammualiflar bilan hamkorlikda “Bandlik va ijtimoiy himoya” hamda “Sosial iqtisodiyot” o‘quv qo‘llanmalari yaratilib, o‘zbek va rus tillarida nashr qilindi.

Olimning kuch-quvvati va ifodasi nafaqat ilmiy ishlarni e’lon qilish, asarlar yaratishda, balki olib borilgan tadqiqotlar natijalariga, erishilgan xulosalarga boshqalarni ham ishontirish, ularning ahamiyatini isbotlay olishida ko‘rinadi. Domlamizda bu sohada bo‘lgan iqtidor cheksiz edi, u kishi innovasion xususiyatlari yangiliklarni amaliyotga joriy qilishning mohir ustasi edilar. Mustaqillikning dastlabki yillarda mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi va davr talabiga hozirjavob K.Saidov boshqaruv kadrlarini qayta tayyorlash kursini tashkil qilish tashabbusi bilan chiqdi. Tez orada Samarqand davlat universiteti qoshida “Menejer” o‘quv markazi tashkil qilinib, 200 dan ortiq hokimiyat xodimlari va 250 ga yaqin mahalla oqsoqollari malaka oshirish kurslarini o‘tadilar. Tinglovchilarga bozor iqtisodiyotiga oid bilimlarni yetkazish hamda ularda boshqaruv madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirishda ustozning o‘zları bevosita ishtirok etdilar.

Ustozning tashabbuskorlik va yangilikka intiluvchanlik xislati, ayniqsa, mamlakatimizda ochiq iqtisodiy xududlarni tashkil qilish g'oyasi dolzarblashgan paytda yorqin namoyon bo'ldi. Professor K.Saidov 1995-yil 2-iyunda "O'zbekiston Respublikasining Buyuk ipak yo'lini qayta tiklash va turizm rivojidagi faol ishtiroki" haqidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilinganidan so'ng ochiq iqtisodiy hududlarni tashkil qilish g'oyasining faol targ'ibotchisiga aylandi. Televideniyada bu mavzuga oid 50 ga yaqin davra suhbatlari o'tkazdi, matbuotda maqolalar e'lon qildi, turli seminar, konferensiyalarda ma'ruzalar qildi va jamoat diqqatini ushbu masala dolzarbligiga jalg qilish yo'llarini qidirdi. Domlaning shu mavzuga oid risolasida erkin iqtisodiy hududlarning mamlakatimiz iqtisodiy rivojidagi istiqboli asoslab berildi.

Samarqand davlat universitet jamoasi K.Saidovning tashkilotchilik tajribasidan doimo bahramand bo'lib kelgan, jumladan uning universitetda iqtisodiyot fakulteti tashkil etilishiga qanchalik jonbozlik ko'rsatganini barcha professor-o'qituvchilar yaxshi eslaydilar. Fakultetning birinchi dekani sifatida K.Saidov uning moddiy-texnik bazasini yaratish, kadrlar tarkibini kuchaytirish, o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashda katta kuch sarfladi. G'ayratli insonning oqilonqa rahbarligi tufayli fakultet iqtisodiyot sohasida mutaxassislar tayyorlash borasida respublikaning yetakchi ta'lif markazlaridan biriga aylandi. Fakultetda tahsil olgan mutaxassislar hozirgi paytda iqtisodiyotning turli sohalarida, korxonalar va tashkilotlarda faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan ba'zilari xorijiy kompaniyalarda menejerlik, ish boshqaruvchilik kabi yuqori lavozimlarni egallab turibdilar.

Professor Karim Saidov mehribon ustoz edi va olimning bevosita rahbarligida 11 ta (Vafayev X., Pak L., Ilayev G., Xujayev Y., Bobokulov B., Seytmuratov R., Ambarsumyan A., Rashidova Z., Niyozov F., Xalikova L., Yuldashev Sh.) tadqiqotchilar nomzodlik dissertasiyalarini yoqlashgan. Domlaning ustozlik mahorati o'ziga xos bo'lib, u kishi shogirdlariga mehribonlik ko'rsatish bilan bir qatorda, ularga nisbatan talabchanlikni bir qatra ham susaytirmas edilar va qat'iyat ila ularni to'g'ri, kelajagi aniq yo'ldan borishga chaqirar edilarki, oqibatda yosh tadqiqotchilar ilmiy izlanishlari samarasidan mammuniyat hosil qilar edilar. Biz ham domlaga shogird tushish va olimning pandunasihatlariga quloq osish baxtiga tuyassar bo'lganlardanmiz. Aspiranturada tahsil olayotganimizda ustoz bizni turizm iqtisodiyoti sohasining istiqboliga ishontirganlari tufayli biz ushbu sohani innovation rivojlantirish muammolari bilan muntazam shug'ullanib kelmoqdamiz.

Professor K.Saidov universitet va iqtisodiyot fakultetining xorijiy oliy o'quv yurtlari va xalqaro tashkilotlar bilan uzbek hamkorligini mustahkamlash tarafdarlaridan edi. Olimning sayi-harakatlari bilan universitetning o'nlab yosh o'qituvchilari va aspirantlari Koventri (Buyuk Britaniya), Olborg (Daniya) hamda Moskva davlat universitetlarida stajirovka o'tab qaytdilar. Domlaning o'zları London, Berlin, Bonn, Dresden, Moskva, Sankt-Peterburg shaharlari o'tkazilgan xalqaro konferensiyalarda ma'ruzalar o'qigan. Ustozning 1997 yilda Sohibqiron Amir Temuring 660 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro konferensiya temuriylar davri iqtisodiy tizimi haqida qilgan ma'ruzasi xalqaro hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otdi va Konrad Adenauer jamg'armasi u kishini Bonn shahrida tashkil qilingan simpoziumga taklif qildi.

K.Saidov, 1997-yil, mart oyida BMT tarkibidagi Xalqaro Axborotlashtarish Akademiyasining akademigi etib saylandi.

Tabiatan xushfe'l, dilkash bo'lgan K.Saidov o'zining qadriyatini yuqori qo'yadigan inson bo'lganligi bois, o'zgalarning qadriga ham yeta olar edi. Bunday odamlar bilan suhbatni Nobel mukofoti sohibi Ernest Xeminguey "seni bir umr tark etmaydigan bayram", deb atagan ekan. Samarqandlik ziyorolar, ishlab chiqarish xodimlari ushbu bayramli damlarni hyech qachon unutmasliklariga imonimiz komil. Muqaddas hadislardan birida "Yomonlarning yomoni – yomon olimlar; Yaxshilarning yaxshisi – yaxshi olimlar", deyilgan. Har qanday Samarqand ahlidan Karim Saidovga ta'rif berishni so'rasangiz "Rahmatli yaxshi odam va yaxshi olim edi", degan javobni olishingizga ishonavering.

Ushbu satrlarni yozish orqali, 2018-yilda 90 yillik yubileyini nishonloyotgan ulug' inson va olim Karim Saidovning yituqlari va zalvarli xizmatlarini hurmat bilan e'tirof etmoqchimiz.

**B. Safarov,
D. Nasimov.**

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiya, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodالangan bo‘lishi kerak va unda umumiyligini qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavida ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E-mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Musahhih
Texnik muharrir

X.Sh.Tashpulatov
M.M. Ro'ziboyev
S. D. Aronbayev

Muharrirlar:

E. U. Arziqulov	- f.-m.f.n., dotsent
O. R. Raxmatullayev	- geogr.f.n., dotsent
B. S. G'oyibov	- t.f.n., dotsent
I.Sulaymonov	- f.f.n., dotsent
A.I.Inatov	

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.
R.Toshquvatova	- fals.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 26.03.2018 yilda ruxsat etildi. Qog‘ozo’lchami A-4. Nashriyot hisobtabog‘i 10,00.
Buyurtma raqami 53. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDUBOSMAXONASIDA chop etildi.